

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

Andijon davlat universiteti

Ona tili va tillarga o`qitish ta`lim yo`nalishi

4- kurs « A » guruh talabasi Asomutdinova Maftunaning

Hozirgi o`zbek adabiy tili fanidan

**“O`zbek tilida ijobiy istak mazmunini
ifodalovchi birliklarning lisoniy xususiyatlari”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D. Nurmanova

Andijon – 2016

M U N D A R I J A:

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....

**I BOB. IJOBIY ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING
LEKSIK- SEMANTIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI**

1.1. Ijobiy istak birliklarining leksik-semantik xususiyatlari.....

1.2. Ijobiy istak birliklarining morfologik xususiyatlari.....

**II BOB. IJOBIY ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING
SINTAKTIK XUSUSIYATLARI.....**

2.1. Ijobiy istak birliklarida gap bo‘laklarining semantik sintaktik
pozitsiyasi.....

2.2. Ijobiy istak birliklari tarkibida undalmalarning qo‘llanishi.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar maboynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho manaviy va madaniy merosni tiklash, uni o'rganish xalqqa etkazib berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi¹.

Xalqimiz o'tmishi madaniy merosimizni o'rganish orqali o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatimizning hisobiga aylandi.

Tilshunos olimlarining samarali mehnatlari tufayli o'zbek tilshunosligining turli bo'lim va tarmoqlari bo'yicha muhim tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. SHunga qaramay, tilshunoslikning ayrim sohalarida haligacha o'z echimini topmagan muammolar oz emas.

O'zbek xalqi muamola madaniyatida ko'p qo'llanadigan jumlarlar ichida shundaylari borki, ularda o'zaro muomalaga kirishgan shaxslar bir-birlariga yaxshi tilak bildiradilar. Bunday jumlarlar duo qilish, biror munosabat bilan muborakbod etish, xayrlashish, salomlashish, ta'ziya bildirish kabi vaqtlarda aytiladi. Ularga xos bo'lgan umumiy xususiyat shundan iboratki, bunday jumlarlar semantik va shakliy jihatdan o'zbek tilida barqarorlashib, aksariyati nutqiy etiketga aylanib qolgan va ularning barchasidan ijobiy istak mazmuni anglashiladi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar so'z birikmasi, sodda yoki qo'shma gap shaklida bo'ladi va ko'p hollarda buyruq gap tarzida shakllanadi. SHu sababli o'zbek tilshunosligidagi gap sintaksisi va semantikasiga hamda so'zlashuv nutqiga doir ilmiy ishlarda aytilgan fikrlar to'laligicha ijobiy istak

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари: маънавий кадриятлар ва миллий мулкни англашнинг тикланиши – Т., Ўзбекистон, 1999. –254 б.

mazmunini ifodalovchi birliklarga ham taaluqli deb aytish mumkin¹. Lekin ta'kidlash lozimki, ijobiy istakni ifodalovchi birliklar – duolar va nutqiy etiketlarning shu vaqtga qadar o'ziga xos leksik – semantik hamda grammatik xususiyatlari aniqlanmagan. Ijobiy istakni ifodalovchi birliklarning so'zlovchining yoshi va jinsiga hamda nutqiy sharoitga ko'ra qo'llanishida ham xarakterli jihatlar borki, bu masalalar ham o'z tadqiqini kutmoqda. Qayd etilgan fikrlar o'zbek tilida semantik va shakliy jihatdan barqaror, turg'un holatga kelib qolgan hamda aksariyati nutqiy etiketlarga aylanib qolgan ijobiy istak mazmunini bildiruvchi birliklarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rus tilshunosligida ijobiy istak birliklari keng aspektda o'rganilganligini qayd etish lozim. Bunda mazkur hodisaning ikki yo'nalishda – nutqiy etiket sifatida hamda nutq madaniyati birligi sifatida tadqiq qilinganligini kuzatish mumkin².

Turkiyshunoslikda ham ushbu masala bir qator olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan. F.Sultonov, D.Sodibekova, Q.Y.Gadjieva, E.F.SHibirdin, A.A.Abdullinlarning tadqiqotlarida ijobiy istak birliklari nutqiy etiketlarning bir turi sifatida qayd qilingan. Mazkur ishlarda nutqiy etiketlarning leksik va semantik xususiyatlari, ularning nutqiy muloqotdagi o'rni tahlil etilib, ijobiy istak birliklarining ham o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari mavjud ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan, tatar tilshunosi A.A.Abdullin tatar tilidagi nutqiy etiketlarga bag'ishlangan dissertatsiyasi avtoreferatida nutqiy etiketlarning quyidagi vazifalarni qayd etadi: 1. Bunday birliklar muayyan nutq sharoitining aks ettiradi. 2. So'zlovchining suhbatdoshiga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. 3. Nutqning ma'lum bir uslubiga xoslangan bo'ladi. 4. Bunday birliklar ichida mazkur tilga oid yoki o'zlashma jumlar bo'ladi³.

Ta'kidlash lozimki, ijobiy istak mazmunini bildiruvchi birliklar o'zbek adabiyotshunosligiga oid tadqiqotlarga olqish termini ostida maxsus o'rganilgan. Unda mualliflar olqishlari ijro o'rni, vazifasi va poetik tabiatiga ko'ra tadqiq

¹ Гуломов А.Ф., Аскарова М.А. Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т., Ўқитувчи, 1965.

² Акишина А.А. Русский речевой этикет пособие для студентов–иностранцев. –М.: Русский язык, 1975.186 с.

³ Абдуллин А.А. Кўрсатилган автореферат. –24 б.

etganlar¹. O'zbek tilshunosligida esa nutqiy etiketlar S.Mo'minov va SH.Iskandarova nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy etiketlar sotsiolingvistik aspektda tekshirilgan bo'lsa,² S.Mo'minovning doktorlik ishida o'zbek muloqot hulqining ijtimoiy – lisoniy xususiyatlari tadqiq etilgan³. Mazkur ishlarda ijobiy istak mazmuniga ega bo'lgan nutqiy etiketlarning ham ijtimoiy – lisoniy jihatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ishning maqsad va vazifalari. O'zbek tilidagi ijobiy istakni ifodalovchi birliklarning leksik–semantik hamda grammatik xususiyatlarini o'zbek so'zlashuv nutqi hamda badiiy–adabiy tili materiallari asosida o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi;

- ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning shakliy–sintaktik tuzilishini aniqlash;
- ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarni mazmuniga ko'ra tasnif qilish;
- ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarni nutq sharoiti hamda so'zlovchining yoshi, jinsiga ko'ra qo'llanishidagi xarakterli jihatlarni o'rganish;
- ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning morfologik xususiyatlarini yoritish;
- ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar tarkibidagi leksemalarning hamda frazemalarning semantik tabiatini o'rganish.

Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari. Ishning metodologik asosini Respublikamiz rahbariyatining milliy til va milliy madaniyatini rivojlantirish xalqning ruhini ko'tarishi haqidagi yo'l – yo'riqlari tashkil qiladi. Mavzuni yoritishda tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan ilmiy

¹ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т.: Ўқитувчи, 1990. 109–112 б.

² Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол.фанлари номзоди дисс.автореф. – Самарканд, 1993. 23–б.

³ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари д-ри дисс.автореф. –Т., 2006.

yutuqlardan ijodiy foydalanildi. SHuningdek, ishda tavsifiy, qiyosiy, kontekstual, komponent, tahlil metodlariga murojaat qilindi.

Ishning tadqiq ob’ekti va materiallari. Tadqiq materiallari sifatida o‘zbek so‘zlashuv nutqidagi ijobiy istakni bildiruvchi duolar, turli bayram va marosimlarda aytiladigan tilaklar, o‘zaro muomala vaqtida aytiladigan, odat tusiga kirib qolgan iboralar – nutqiy etiketlar hamda rasmiy, badiiy va publitsistik asarlarda qo‘llangan ijobiy istakni ifodalovchi, semantik-sintaktik jihatdan turg‘un, barqaror holga kelib qolgan birliklar tanlab olindi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishimiz ishning umumiy tavsifi, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami sahifani tashkil etadi.

I BOB. Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning leksik- semantik va morfologik xususiyatlari

1.1. Baho va uni ifodalovchi vositalar

Keyingi yillarda logika fanining o'rganish jabhasi kengayishi munosabati bilan u yangi – yangi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Aval mantiq matematika bilan bog'liq holda o'rganilgan bo'lsa, hozirda falsafa orqali tadqiq qilinmoqda. Bu esa uning yangi ufqlarini namoyon qilmoqda. Formal logika bir qancha kategoriyalarga ega bo'lib, ulardan bir baho logikasidir. Baho munosabati keyingi 20 yillar davomida formal logika asosida yuzaga chiqqan yo'nalishdir. Baho munosabatlarni mukammal va keng qamroda o'rganishga keyingi yillarda kirishildi.

Baho logikasi, o'lfning ta'kidlashicha struktur jihatdan 4 elementdan iborat: sub'ektiv predmet, xususiyat, asos¹.

Baho sub'ekti deganda ma'lum predmetni o'z nuqtai nazaridan yoki boshqa predmetga qiyosan baholochi shaxs tushuniladi. Har qanday shaxsning o'z nazdi bo'yicha predmetni xis etish, u haqda o'z munosabatini bildirish shaxs bahosidir. SHaxs bahosi individual xususiyat kasb etishi yoki umumlashgan bo'lishi mumkin.

Ob'ekt bahosi ifodalanayotgan narsa, uning ma'lum holatda, vaqtda tutgan o'rni asosida baholanadi. Ob'ekt bahosi narsaning qiymati sanaladi. Masalan:

Zohid chindan ham halol vijdonli yigit gapida Zohid – ob'ekt, uning halolligi, vijdonliligi – xususiyati – bahosi sanaladi. Ko'rinib turibdiki, xusuiyat predmetning qanday ekanini ifoda etadi va o'sha xususiyat orqali predmetning bahosi aniqlanadi.

¹ Вольф Е. М. Роль субъект оценочных структурах.
Лимба литература молдеелнеке, 1979. № I

Asos – norma, etalon. Har qanday predmet baholanganda u majud asos - etalonga nisbatan olinadi. SHunga ko‘ra baho chog‘ishtiruv asosida ro‘yobga chiqadi.

Baho semantik tushuncha hisoblanib, u doimo moddiy asosga ega bo‘ladi. Baho olamda majud bo‘lgan har qanday hodisaga sub‘ekt tomonidan belgilangan o‘lchovdir. U nutq momentida nisbatlanayotgan hodisaga qarab qiyoslanadi. SHu sababdan ham baho nisbiydir va qiyoslashdan ajralmasdir. Har qanday ob‘ektning bahosi qiyos asosida aniqlanadi va chog‘ishtirma baho sanaladi. SHuning uchun ham har qanday ob‘ektning majudligini ta‘min etuvchi xususiyat mavjud bo‘ladi. Bu xususiyat shakllanishi, o‘zgarishi mumkinki, shunga ko‘ra o‘sha predmet baholanadi. Baho o‘z xarakteriga ko‘ra mutloq va qiyosiy bo‘ladi. Mutloq baho predmet tasavvur etilgandayoq his qilish mumkin bo‘lgan baho. Qiyosiy baho esa hajm, shakl, vaqt kabi munosabat bahosini ifodalashda ishlatiladi. Mutloq baho sub‘ektning barcha ob‘ektlari uchun va ob‘ektiv borliqdagi barcha narsa, voqea, hodisa, belgi, harakat uchun ijobiy neytral – salbiy munosabatlardan birini ifodalashini bildiradi. Mutloq baho logikasining ta‘rifi uni tushunish borasida sistemali tadqiqotlarning yo‘qligi A. A. Ivin tomonidan ham ta‘kidlanadi va olim bu haqidagi qarashlarini bayon etadi: “Mantiqiy baho ifodasini uch holatda ko‘rish mumkin: sintaktik, semantik, pragmatik”. Sintaktik jihatga ko‘ra har qanday sistema formal logikaning shakliiy tuzilishi asosida amalga oshadi. Mutloq baho sintaktik jihatdan qat‘iy shakl asosida ro‘yobga chiqadi. Iragmatik baho me‘yori hosil qilingan amaliyot asosida aniqlanadi va ekstralingvistik faktorlariga ham asoslanadi. Semantik me‘yor ko‘p aspektli bo‘lib, mantiqiy munosabatga (borliqdagi haqiqiy denotativ baho ma‘nosi va individning bunga munosabati) aloqadordir.

Lisoniy jihatdan esa baho gap mazmuniga yashiringan holda, presuppazitsion ma‘no xarakterida bo‘ladi.

“Asqar yuragi toza bola edi” kabi holatlarda ob‘ekning ma‘nosi ichiga uning sifatiy bahosi (lidkashligi, mehribonligi) yashiringan bo‘ladi, ya‘ni ob‘ektning ma‘nosini tashkil etuvchi semalardan biri baho semasini bildiradi.


Logik va lisoniy jihatdan baho munosabatlari o‘zaro aloqador hamda biri ikkinchisini takror etadi. Logik bahoning ro‘yobga chiqishi lisoniy vositalar orqali amalga oshadi.

Bahoning ifodalanishida ma’lum predmet bahosi davriy o‘zaro zid baho munosabatlarini ifodalash mumkin. YOki baho munosabati turli individlar tomonidan o‘z nuqtai nazariga ko‘ra o‘zaro qarama – qarshi munosabatni bildiradi. Baho munosabatlaridagi qarama – qarshilik va bahoning ratsional munosabati baho logikasidagi asosiy prinsplardan biri sanaladi¹. Mantiqiy jihatning lisoniy ko‘rinishi lug‘aviy birliklarning turli vositalari yordamida ko‘chma ma’no etishi, semantik strukturasidagi o‘zgarshilar kontekst, pauza, talaffuz asosida amalga oshiriladi.

Qiyosiy baho logikasining asosiy prinsipi assimetrlilik xususiyatidir. Qiyosiy baho logikasida davriylik va individuallik etakchi faktorlaridan sanaladi. SHunga ko‘ra qiyosiy baho o‘zgaruvchan xusuiyat kasb etadi².

A. V dan har doim yaxshi bo‘lmaganidek, V ham har doim S dan yaxshi bo‘la olmasligi mumkin. SHu bilan birga baho munosabatini ifoda etuvchi individning ham sub’ektiv munosabati qiyosiy baho logikasini asosiy hisoblanadi.

Masalan:



misolimizda berilgandagi kabi bir timsolga ikki xil baho berilishiga sabab baho berayotgan individning ikki xil ekanligidir.

Ba’zi o‘rinlarda logik va lisoniy baho munosabati nomunosib kelishi hollari kuzatiladi.

Logik baho nazariyasi falsafiy, psixologik, lingvistik, iqtisodiy baho tushunchasi uchun asos bo‘lib hizmat qiladi va u har bir fanga o‘z muammolarni echishda maba sanaladi.

¹ Ивин А.А. О. логике оценок. Журн. Вопросы философии 1968, № 8, 58-бет.

² Камбаров Ф. Баҳо лисоний ва мантикий категория сифатида. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Андижон, 1995, 89-бет.

Tilshunoslik keyingi yillarda an'anaviy usullardan chekingan holda, tilni funksional logik – semantik aspektda o'rganilmoqda. Natijada bu sohada, tilshunoslikda, o'rganilishi lozim bo'lgan yangi – yangi qirralar, yo'nalishlar ochilmoqda va bu holat lisoniy ilmni mukammal o'rganishga asos bo'lmoqda. Tilga mantiqiy yondashish natijasida til sathlari va birliklarining mantiqiy jihatlari aniqlanmoqda va logik kategoriyalar muhokama qilinmoqda. Har qanday mantiqiy munosabat til birliklari orqali ifodalanadi. SHu qatorda baho munosabatlari, ularning ob'ektiv borliqda mavjudligi, tushuncha sifatida inson ongida paydo bo'lishi, uning turlari, mezonlari kabi masalalar faylasuf va mantiqning o'rganish ob'ekti sanalsa, bahoning tilda namoyon bo'lishi uni ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, paralingvistik vositalar, baho semantikasi kabi masalalar tilshunoslar tomonidan o'rganiladi. Agar mantiq ilmida qiyosiy va mutloq baho munosabatlari mavjud bo'lsa¹, tilda sifat darajalari sinonim so'zlarda ma'no nozikliklari mavjuddir. Agar voqelikda inkor va tasdiq, ijobiy va salbiy munosabatlar mavjud bo'lsa, tilda inkor va tasdiq gaplar, bo'lishli va bo'lishsizlik, ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik, antonomik munosabatlar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Baho munosabatlari mantiq va tilshunoslik fanlarining dialektik holati asosida o'rganiladi. Mashhur faylasuf V.P. Tugorinov baho munosabatlarining mohiyati haqida gapirib, bahoni hozirgi zamonda jamiyat va tabiatning rivojlanishi, takomili va hatto o'zgarishi uchun eng ahamiyatli kategoriya sifatida baholaydi².

Tilshunoslik nuqtai nazaridan baho munosabatlari logik – tilshunoslar, semantika bilan shug'ullanuvchi E.M. Volf, N.D.Arutyunova, S.S.Xidikel, G.G. Kashel, A.A. Ivin kabi olimlar asarlarida yoritila boshlandi.

E.M. Volf bahoni funksional – semantik jihatdan tekshirsa¹ N. D. Arutyunovada aksiologik masala falaqiy asosda olinadi va tadqiqot logik – semantik yo'nalishda olib boriladi².

¹ Ивин А.А. Основания логики оценок. МГУ. 1970

² Тугоринов В.П. О ценностях жизни и культуры. М, 1960.

¹ Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. М. 1985.

² Артюнова Н.Д. Сравнительная оценка ситуации, // Изд. АН СССР берия лература и языка. 1983. Т. 32. № 4

S. S. Xadikel G. G. Kashel tadqiqotlarida baho ifodalovchi leksik vositalarning semantik xarakteristikasi beriladi va faqat barcha tomondan leksemalar e'tiborga olinadi.

N. D. Arutyunova ikki xil nopredmet ob'ektni ajratishni kifoya deb biladi: narsalar (holat, xususiyat, hodisa) va faktlar (asosan propozitsiyalar). Birinchisi insonning ob'ektiv borliqqa munosabatini bildirsa, ikkinchisi borliqning inson ongiga singib borishini bildiradi. U o'z fikrini davom ettirib, birinchi guruhga quyidagi parametrlarni kiritish mumkinligini aytadi: harakatlanish va harakatsizlik, harakat yoki holatning darajalanishi, natijalilik va natijasizlik va hokazo. Ikkinchi holat uchun belgilarga qarab ajratish harakterli bo'lib haqiqat va faraziy (tahminiy) haqiqat va yolg'on tasdiqlash va rad etish singari xususiyatlar olinadi³.

Baho mu'nosi ob'ekt va sub'ekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi. Bahoning belgisi ob'ektga bog'liq bo'lib shu asosda ijobiy yoki salbiy munosabat yuzaga keladi. Baho munosabatining lisoniy tomoni semantik strukturada o'z ifodasini topgan. Baho ma'nosi predmet yoki harakatning belgi (keng ma'noda qiymat) munosabatini ifoda etgani uchun ko'p holda sifatlar va ravishlar baho ma'nosini tashuvchi so'zlar hisoblanadi. Baho ifodasi lisoniy jihatdan turli vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Nominatsiya masalasi juda keng bo'lib, bir necha planda o'rganiladi. "Nominatsiya" tushunchasi va terimini tildagi ma'nodor birliklarning (so'z, so'z formalari, gaplar) hosil bo'lishi va qanday atama haqidagi tilshunoslik nazariyasi va metodlari bilan bog'liq. Nominatsiya oddiygina biror narsani ko'rsatish yoki atash protsessi emas, balki bir yo'la bilish va kommunikatsiya protsessi hamdir¹.

Nominatsiyada ob'ektiv borliqdagi predmetlarni hodisa va narsalarni atash so'zning denotati yoki referenti bo'lib hizmat qiladi. So'z morfema va boshqa til birliklari ma'lum predmetni atash bilan birga ular o'rtasidagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Denotatlarning til birliklari orqali atalishi va birinchi bor, qo'llanishi

³ Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки. ВЯ. 1985 № 3.

¹ Баскаков Н.А. ва бошвалар. Умумий тилшунослик. Г., 1979, 109-б.

birlamchi nominatsiya deyiladi². Biroq til birliklari o'z referentlariga munosabatini doim saqlab turmaydi. SHu tufayli tilda semantik assimetriya mavjud bo'lib, bu tildagi semantik o'zgarishlarni keltirib chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Nominatsiya masalasi tilning tafakkur, ob'ektiv borliq, psixologiya, semiotika bilan bog'liq tomonlarini yoritishda muhimdir. Nom qo'yish inson tomonidan bajariladi. Insonning o'z tilidagi nomlarni qo'yishi ma'lum tajriba yordamida amalga oshiriladi. Odam ma'lum predmet yoki hodisaga nom qo'yishda uning belgilarini his etadi, ular haqida tushunchaga ega bo'ladi va o'zining protsessida, odamning fikrlash qobiliyati yordamida nom tanlash amalga oshiriladi. Odamning fikri material jihatdan tovush formasida ifoda etilib, bu tovushlar birikmasi ma'lum urg'u va ohang yordamida biror predmet yoki predmetlar guruhining bir aniq vakiliga tegishli ma'noni namoyon etadi. SHu jihatdan ma'no odam ongining eng zarur hosil qiluvchi elementi hisoblanadi³. Tildagi ma'nolar zaminida jamiyatda ijtimoiy odatiy tus olgan vositalar yotadi. Bu protsesslar borasida odamlar ob'ektiv borliqni biladi va o'zgartiradi.

Til orqali kommunikatsiya protsessida biror predmetning nomini atash bilan eshituvchida shu predmetning shakli, xususiyati va belgilari haqida taasurol hosil bo'ladi. Eshituvchi va predmetni boshqa predmetga va uning belgilariga qiyoslaydi. Biroq qiyoslash uchun mantiqiy (logik) asos bo'lishi zarur. Biror abstrakt tushuncha predmet bilan qiyoslanmaydi. Balki bir predmetning boshqa predmet bilan qiyoslash natijasida ular ongli ravishda his etiladi. Boshqacha aytganda, shu narsalarning odam miyyasida shakli chiziladi va nom beriladi. Qiyoslash orqali nom berish ham baho hisoblanadi. Sub'ekt ob'ektning xususiyatlarini o'rganib, his qilgandan so'ng, unga o'z munosabatini bildirgan holda baho beradi.

Nominatsiyani tipologik klassifikatsiya qilish natijasida uning quyidagi aspektlari aniqlangan:

1. Nominatsiyalar merarxiyasi.

² Салимов Р. Ўзбек тилида такрорий номланиш масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти. 1989. 4-сон, 26-бет.

³ Баекаков Н. А. Ва бошқалар. Умумий тилшунослик. Т. 1979. 110-бет.

2. Nominatsiyalarning funksiyalari.
3. Ataluvchi ob'ekt.
4. Nom qo'yishning strukturasi (tashqi formasi).
5. Nom qo'yish vositalari (shu jamladan, ichki formasi).
6. Nutq sub'ekti va adresati (shu jumladan, sotsial va informativ aspektlar hamda sub'ektning ob'ektga bo'lgan sub'ektiv munosabati).
7. Nominatsiyalarning naradigmatik aspektdagi munosabatlari.
8. Nominatsiyalarning sintagmatik aspektdagi munosabatlari.

So'zlarning etimologik jihatdan kelib chiqishi ob'ektiv bo'lib, u so'zning ob'ektiv tabiati bilan bog'liq emas. Chunki so'z konkret va abstrakt tushunchaning biriligidir. Shu sababli nominatsiyada ham faqat so'zning etimologiyasiga e'tibor berilmay, ma'no doirasini kengayishini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Shu sababli so'zlarning kelib chiqishini tasnif qilishda ularning etimologiyasidagi o'xshashlik va farqli alomatlar orqali bir predmetning nomi ikkinchi predmetga ko'chirilgani ma'lum bo'ladi.

Nominatsiyalar faqat leksik vositalar bilan amalga oshirilmay, balki grammatik va stilistik vositalar yordamida ham yuzaga keladi. Leksik vositalar orqali nom qo'yish mustaqil nominativ funksiyaga ega bo'lsa, grammatik va stilistik vositalar yordamida tuzilgan nomlar mustaqil nominativ funksiyaga ega emas. Masalan, (eshak) hayvon va eshak (odam) kabi. Keyingi nom belgi orqali ko'chirilgan stilistik nominatsiya hisoblanadi. Bunda ifodalanovchi va ifodalanishi o'rtasidagi munosabat mavjud bo'lib, ob'ekt nom olyapti va baholanyapti.

Nominatsiyaning turli aspektlari, turlari, ularning til va nutqdagi xususiyatlari va hokazolar hali etarli ravishda o'rganilgan emas. Nominatsiya murakkab masala bo'lib, har tomonlama tekshirishni talab qiladi.

Individ yoki so'zlovchining ob'ektiv borliqqa yoki o'z nutqiga o'zi tomonidan belgilanadigan salbiy yoki ijobiy munosabati grammatikada modal kategoriyasi termini bilan yuritiladi¹.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 1 том. Т. 1975, 585-бет.

An'anaviy tishunoslikda gap bo'laklari orqali atributiv, ob'ektiv, relyativ, predikativ kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanishi ta'kidlanadi. SHu bilan birga undalma va kirish so'zlar ham ma'lum munosabatlarni ifodalaydi. Lekin undalma va kirish so'zlar orqali ifodilangan mazmuniy munosabat boshqa mazmuniy munosabatlardan tubdan farq qiladi. Atributiv, ob'ektiv, relyativ, predikativ munosabatlar gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vazifaning (propozitsiya, diktum) ikki unsuri o'rtasidagi munosabat bo'lsa, undalma va kirishlar ifodilangan munosabat gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vaziyat yoki uning ma'lum unsuri bilan so'zlovchi o'rtasidagi munosabatdir. SHuning uchun sintaktik shakllar o'rtasidagi ifodalanadigan mazmuniy munosabatni ikki guruhga ajratish mumkin bo'ladi:

- 1) ob'ektiv munosabat;
- 2) sub'ektiv munosabat.

Undalma va kirishlar sub'ektiv munosabatni ifodalaydi.

Gap ifodilangan sintaktik vaziyat yoki uning unsuri bilan so'zlovchi o'rtasida qanday munosabat mavjudligiga ko'ra, sub'ektiv munosabatni yana ikkiga ajratish mumkin:

- 1) undash (vokativ) munosabat.
- 2) Modal munosabat

So'zlovchi nutq jarayonida ma'lum voqelik haqida axborot berish davomida tinglovchining diqqatini shu axborotga jalb qilgisi yoki bu axborotga qo'shimcha ravishda tinglovchiga o'zining ma'lum sub'ektiv munosabatini ifodalagisi kelib qolishi mumkin. Ana shunday munosabat undosh munosabati sanaladi.

So'zlovchi ma'lum ob'ektiv mazmun, voqelik haqida axborot berish davomida shu voqelikka o'zining shaxsiy munosabatini (tasdiqlash, tahmin, ishonch va boshqalar) ham ifodalashi mumkin. Ana shunday munosabat modal munosabat sanaladi¹.

Tishunoslikda modallik deganda, gap mazmunining ob'ektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi.

¹ Махмудов Н. Нурмонов А. Ўша асар, 101-бет.

Modellik kategoriyasiga gap modelligini ta'minlashda hizmat qiluvchi xilma – xil vositalar kiritiladi. Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. SHu sababli modellikni ifodalovchi vositalar ham rang – barangdir. Tishunoslikda bu vositalarni aniqlashning yagona metodikasi bo'lmaganligi tufayli modallik ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha jaratilmoqda. Turkiy tillar materiallar asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon, shaxs qo'shimchalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar. Ko'rinib turibdiki, bu kategoriya ostida xilma – xil vositalar: morfologik, leksik, sintaktik, takror va fonetik vositalar kiritiladi.

Modellikning umumiy ta'rifiga tilshunoslikda ma'no plani nuqtai nazaridan yondashiladi, ya'ni munosabat belgisi e'tiborga olinadi¹. V.Vinogradov va uning izdoshlari tomonidan modallik ostida: 1) kommunikativ ma'no turlari: darak, so'roq, buyruq ma'nolari bo'yicha farqlanadigan gap turlari, 2) tasdiq va inkor bo'yicha farqlanadigan gap turlari, 3) gap mazmuniga so'zlovchining hissiy munosabati va boshqa bir qator ma'nolar birlashtiriladi².

G.G. Sibagatov modallik birinchi navbatda, so'zlovchining raellikka bo'lgan munosabatining aks ettirishi deb to'g'ri ta'kidlaydi. Modallik ostida gapning sub'ekt bilan bog'liq bo'lgan turli ma'nolari tushunilganligi uchun, avvalo, bu ma'nolarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1) ob'ektiv

2) sub'ektiv

Ob'ektiv modallik kesim vaziyatida kelgan sintaktik belgilardan biri bo'lsa, sub'ektiv modallik hamma gaplarda bo'lishi shart emas. Ob'ektiv modellik bilish akti yo'naltirilgan ma'lum bir voqeadagi mavjud, ob'ektiv aloqalar xarakterini aks ettiradi (mumkinlik, haqiqiylik, zaruriylik). Ob'ektiv modallik jumla

¹ Нурмонов А. ва бошқалар, Ўзбек тилининг мазмуний синтактикаси. Тошкент, 1992 й., 82-бет.

² Ўша асар, 83-бет.

mazmunining borliqqa raellik – noreallik, muvofiq kelishi yoki muvofiq kelmaslik nuqtai nazaridan munosabatdir. Ob'ektiv munosabat gapning zurruriy belgisi³.

Ob'ektiv modallik deganda, odatda gapdan ifodalangan mazmunning reallikka bo'lgan munosabati tushuniladi, demak, gap, mazmuni reallik. Bu o'zaro ma'lum munosabatga kirishuvchi ikki elementdir. Munosabat esa elementning qismga ham, elementlar yig'indisiga ham teng emas. Ob'ektiv modellik gapning sintaktik bo'linishi sathida o'z ifodasini topadi. Uning shakliy ko'rsatkichlari:

- 1) fe'l mayllari (shart – istak, buyruq, shirtli ijro)
- 2) maxsus model fe'llar: xohlamoq, istamoq va boshqalar.
- 3) leksik vositalar: kerak, lozim, darkor, majbur, zarur va boshqalar.

Ob'ektiv modallar o'z navbatida turli ma'nolarni o'z ichiga oladi:

1. Gapda ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati. Bu fe'l mayllari va intonitsiya orqali ifodalanadi va gap mazmunining real (noreal) ekanligini farqlaydi.

2. Sub'ektning “o'z” harakatiga munosabati. Bu modallik to'rt subkategoriyani birlashtiradi: 1) aniqlik. Nol ko'rsatkich bilan xarakterlanadi:

2) mumkinlik, imkoniyati borlik, olmoq, bo'lmoq ko'makchi fe'llari orqali ifodalanadi.

Masalan:

Layoqatsiz odam boshliq bo'lib olsa, odamlar ko'zi oldida o'zini o'zi xorlagan bo'ladi.

3) zarurlik, majburlik. Modallikning bu ma'nosi kerak, lozim, darkor, zarur singari so'zlar orqali ifodalanadi.

Masalan:

... Aslida men ilon bo'lishim kerak edi. Ularni bo'g'ib qaynashim kerak edi.

4) xohish – istak. Bu ma'no maxsus modal fe'llar orqali (xohlamoq, istamoq va boshqalar) ifodalanadi.

Masalan:

³ Нурмонов А., Махмудов Н. Ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, 1992 й., 84-бет.

Xojaga aylangan gap xohlasa kuldiradi, isasa yig'latadi. Xohlasa – jon beradi, xohlasa – jon oladi.

Sub'ektiv baho so'zlovchining ob'ektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishidir. Sub'ektiv modallik so'zlovchining jumla mazmuniga ishonch, gumon, aniqlik, rozilik kabi munosabatlarni ifodalaydi. Bu modallik kirish so'z funksiyasida kelgan maxsus modal yoki modal vazifasidagi boshqa so'zlar yordamida ifodalanadi. Sub'ektiv modallik ob'ektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. SHuning uchun ham u gapning uzvi emas.

Baho (sub) doimo sub'ekt tomonidan belgilanadi. D.D.Voronina, G.A. Zolotovalar sub'ektni gap semantik tuzilishining eng muhim kategoriyasi, predikativ belgining (faqat predikativ belgini chunki xuddi shu belgi sub'ekt haqida tasavvur uyg'otadi) tashuvchisi hisoblaydilar. Sub'ekt predikat bilan dialektik bog'langan. CHunki u predikat ifodalagan belgining egasi, predikat esa sub'ekt belgisini bildiradi.

Sub'ektiv baho ma'nosini fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, ekstralingvistik vositalar bilan ifodalanadi.

Sub'ektiv bahoning fonetik yo'l bilan ifodalanishida intokatsiya (ota:jon), urg'u, juft so'zlar (otlar) kampanentida ayrim fonetik o'zgarish, bolalar nutqiga taqlid natijasida ayrim tovushlarning boshqa shunga yaqin tovush bilan almashtirish muhim rol o'ynaydi. Bu fonetik o'zgarishlar natijasida ifodalangan emotsional – ekspressiv ma'noning ijobiy yoki salbiy ottenkali ekanligi nutqning kimga (so'zlovchiga nisbatan katta yoki kichik yoshda) qaratilganligi, uning leksik – grammatik qurshovi, so'zlovchining yoshiga ham bog'liq.

Masalan:

- Qo'shnilardan ham toz-za buyurgan ekanda-a?-dedi haydovchi yana ko'zgu orqali.

SHunaqa, prokuror, yig'lab yuboray deb o'tiribdi, akang.

So'zlovchining ob'ektni baholash, unga munosabati, ayrim jonivorlar nomlarining kishilarga nisbatan metaforik ravishda ishlatilishi yoki o'zi uchun go'zal, yoqimli deb hisoblovchi narsalarni, tushunchalarni ifodalovchi neytral

soʻzlarining ekspressiv oʻttenka qabul qilishi natijasida subʼektiv bahoning leksik yoʻl bilan berilishi hisoblanadi. Koʻp hollarda (leksik) (vosita) subʼektiv baho bildiruvchi leksik vosita epitet – erkalatish vositasi sifatida oʻz aniqlanishi bilan birgalikda ishlatiladi, aniqlanmish rolida qavm – qarindoshlikni bildiruvchi terminlar keladi. Subʼektiv baho maʼnosining bunday ifodalanishi analitik usul sifatida klasifikatsiya qilinadi.

Bunda ham sher, gul, bek hamda goʻzal, oppoq kabi soʻzlar ishlatiladi va oʻz aniqlanmishi bilan birga keladi.

Subʼektiv baho qiz yoki oʻgʻil soʻzlari oldidan, otam, bolam, onam, qizim kabi soʻzlarni aniqlovchi sifatida keltirish bilan ham ifodalanadi. Oʻgʻil bola soʻzlari oldindan keluvchi ota soʻzi ham, bola soʻzi ham asosan egalik affiksini qabul qiladi, baʼzan esa bola soʻzi tushurilib qoldiriladi va faqat otam soʻzi ishlatiladi. Baribir unda ham erkalatish maʼnosi kelib chiqq beradi. Kishilarga nisbatan qimmatbaho narsalarni ishlatish natijasida ham ijobiy munosabat ifodalanadi:

- jonim bolam, oltin bolam...

Subʼektiv baho maʼnosini ifodalashning eng koʻp tarqalgan usuli leksik – grammatik usuldir. Bunda maʼlum soʻzning oʻz leksik maʼnosi bilan yoki koʻchma maʼnosi bilan obʼektning subʼektga munosabatini ifodalovchi soʻzlarga shu maʼnoni kuchaytiruvchi morfema qoʻshiluvchi natijasida hosil boʻlgan maʼno nazarda tutiladi. Maʼlum tomonlari bilan leksik – grammatik usul leksik usuliga oʻxshab ketadi. Faqat bunda aniqlanmish boʻlmaydi va grammatik vosita bevosita soʻzlarning oʻziga qoʻshiladi.

Masalan:

- Nadulya, sen mening quyoshimsan!

Oʻzbek tilida subʼektiv baho maʼnosini, asosan morfologik uchul bilan, yaʼni soʻz negizlariga turli xil morfemalar (subʼektiv baho maʼnosini keltirib chiqaruvchi) qoʻshib hosil qilinadi.

Bundan tashqari, soʻzlovchi oʻzining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirishda qoʻshimcha jest va mimikalardan ham foydalanadi. Bu tildan tashqarida

yuz beradi va ekstralingvistik usul hisoblanadi. Ekstralingvistik vositalar mazmunan keng qamrovli bo‘lib, nutq bilan hamohang tarzda boyib beradi. SHu sababdan ham ba’zi nutqiy sharoitlarda bir necha gapga teng mazmun ifodalashi mumkin.

Masalan:

CHuvrindi yigitga qaragan edi, u bosh barmog‘i bilan ko‘rsatkich barmog‘ini birlashtirib, teshki kulcha holatiga keltirdi-da, chap ko‘zini qisib, kulimsiradi.

Qo‘shimcha jest yoki mimika so‘z, umuman gap mazmunini tamoman teskari tomonga o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bunda jiddiy tarzda ifoda etilgan so‘z yoki gapga kinoya ottenkasi beriladi. Masalan, mehmon taom keltirganda ox – ox palov! palov! Deb juda yaxshi kayfiyatda ovqatni ma’qullagan bo‘lib, ammo yondagi sherikka qarab yuzini burishtirishi va boshni chayqashi ovfatga nisbatan munosabatni, mezbondan norozilikni yoki uni kamsitishni bildiradi.

Sub’ektiv baho formalarining hamma ko‘rinishi ham, asosan, og‘zakki nutq uchun xos bo‘lgan hodisalardir. Badiiy asar tilida tez – tez uchrab turuvchi bunday formalarni ham og‘zaki so‘zlashuv nutqi uchun xos bo‘lgan holatlar deb qarash ma’qul.

Sub’ektiv baho fonetik, leksik, morfologik, sintaktik paralingvistik vositalar yordamida ifodalanadi.

Sub’ektiv bahoning fonetik uchul bilan ifolanishida intonatsiyaning tarkibiy qismlari, pauza, melodika, urg‘u muhim o‘rin egallaydi. Nutqiy jarayonda yuqoridagilar bilan bir qatorda ovoz bo‘yog‘i asosida ham hayajon ro‘yobga chiqadi va bunday holatlar baho ifodalovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ovozning pasayishi yoki kuchayishi, pauza yoki surunkali yo‘g‘on yoki ingichka gapirish, so‘zlash jarayonida ohang yoki temb xususiyatlari aloqa aralashuvida baho ifodalovchi vositalardan sanaladi. Garchi yozuvda talaffuz jarayoni aks etmasada, nutq irod qiluvchining baho munosabati ovoz toni, ohang orqali ifoda etilishi mumkin. Masalan:

Bu yoqqa o‘tiring, o‘g‘il bola.

Berilgan misolimizda “o‘g‘il bola” so‘zi urg‘u olib, sub‘ektning ob‘ektga nisbatan qilgan muloyim munosabati orqali, uning salbiy munosabati anglashilyapti. Bu munosabatda ohang va intonatsiyaning roli muhimdir.

Baho ifodalashning leksik yo‘li baho bildiruvchi so‘zlar orqali yuzaga keladi. Vinogradovning fikricha so‘z grammatik, leksik ma‘noni, shu bilan birga ob‘ektga sub‘ektning bahosini ham namoyon qiladi. Leksemalarning ifoda semalari atash semastdan tashqari, turli qo‘shimcha ma‘nolarni (uslubiy bo‘yoqni, shaxsiy munosabatni, qo‘llanish doirasini) anglatadi. Ifoda semalari ham leksemalar paradigmasida aniqlanadi¹. masalan, yuz, bet, aft, chehra, jamol leksik paradigmasini olaylik. Bu leksemalarda atash semalari bir xil bir ifodalanmishni ifoda etadi. Ammo bet, aft so‘zlari salbiy ma‘noni, chehra, jasol so‘zlarida ijobiy munosabat semalari mavjud. Bu so‘zlar o‘zaro jarajali ziddiyatni tashkil etadi. YUz semasida shaxsiy munosabat aniq belgilanmagan. Boshqa leksemalarda esa shaxsiy munosabat aniq ifodalangan. SHunga ko‘ra leksik usulda sinonim, antonim so‘zlar orqali ham baho ifodalanadi.

Frazeologizmlar ham munosabat bildirishda faol ishtirok etadi. R. Komiljonova, M. Tursunpo‘latov, R. Ikromov, SH. Qozoqov kabilarning ishlarida ham frazeologizmning modal mazmuni haqida ahamiyatga xos milliy qirralarini ochishda so‘zlashuv nutqiga oid iboralarning o‘rni g‘oyat muhim. Ayniqsa, frazeologizmlar nutqda sub‘ektiv baho ifodalash jihatidan faol ekanligi bilan ajralib turadi.

Berilgan misollarda “mulla mingan eshakday”, “qovun tushurmoq”, “bitta ham tuki to‘kilmay” frazeologizmlari sub‘ektining bahosini odatdagidan kuchliroq ifoda etish uchun hizmat qilmoqda.

Nutqda sub‘ektiv modallikni ro‘yobga chiqaruvchi frazeologizmlarni mazmun jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Alqish iboralar.
2. Qarg‘ish iboralar.
3. Diniy e‘tiqod bilan bog‘liq iboralar.

¹ Неъматов Х. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., 1995, 60-бет.

4. Murakkab mazmunli iboralar¹.

Bu boʻlimlarga kiruvchi iboralar oʻz navbatida yana mayda guruhlarga ajratilgan.

Misolimizdagi “oʻrgilay” soʻzi alqish iborasi boʻlib, shaxsga nisbatan mehr – muhabbat maʼnosini bildiradi. Unga qoʻshimcha tarzda “jon” affiksondi ham atqli otlarga qoʻshilib erkalash – suyish maʼnosini bildiradi. Bu ikkala vosita birgalikda obʻektga nisbatan subʻektning (opaning) ijobiy munosabatini bildiriyapti.

- Ana u, qurumsoqlarchi, bay, bay, bay... biram koʻngli egriey... baloga uchrasin. (A. Qahhor. “Sarob” 33)

Bu misolimizda esa “bay, bay, bay” undov soʻzi orqali norozilik, “koʻngli egri”, “baloga uchrasin” qargʻish iborasi yordamida yomon istak ifodalanib, salbiy baho bildirilyapti.

Frazeologizmlar subʻektiv bahoni yorqin ifodalanib beradi. Lekin tilshunosligimizda frazeologizmlarning nutq jarayonida qoʻllanishi maxsus tekshirilmagan¹. Frazeologizmlar subʻektiv baho ifodalovchi leksik vositalardir.

Subʻektiv baho ifodalashning morfologik usulida subʻektiv baho ifodalovchi affiks va affiksoidlardan tashqari modal soʻzlar, oʻxshatish konstruksiyalari, - lar koʻplik formasi ham aktiv ishtirok etadi.

Modal soʻzlar modallik ifodalovchi vositalardir. Munosabatni ifodalash maqsadida ishlatilib kelinmoqda. Oldingi fikrga munosabat vaziyat – situatsiyadan kelib chiqib, turli xil boʻlishi mumkin.

- Hey attang... Hey attang... Bu albatta kechirilmaydigan gunoh. Sizni ovora qildim... (A. Qahhor. “Sarob”. 62)

Misolimizda “attang” modal soʻzi takrorlanib afsuslanish maʼnosini, “albatta” esa munosabatning aniqligini bildiriyapti. Oʻxshatish konstruksiyalari ham subʻektning ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalaydi.

Bilishimcha, talanti shiradan tozalangan Rahimjon hozir shalogʻi aravaday Murodxoʻja domlaning tomorqasida agʻnab yotibdi.

¹ Лафосов У. П. Диалогик нуткда субъектив моделининг ифодаланиши. Автореферат. Т., 1996, 9-бет.

¹ Ўша асар. 16-бет.

(A. Qahhor. “Sarob” 227-bet)

- Be e to‘rtta bolani beshikda o‘stirdim, hammasining oyoq – qo‘li oyday!

Berilgan birinchi misolimizda ob‘ekt (Rahimjon) shalog‘i chiqqan aravaga o‘xshatilib salbiy munosabat anglashilgan bo‘lsa, ikkinchi misolimizda ob‘ekt (bola) oyga o‘xshatilib sub‘ekt tomonidan ijobiy baho olyapdi.

-lar affiksi ko‘plikdan tashqari, hurmat. Kesatiq, kinoya kabi bir qancha ma’nolarni anglatadi.

- Eshitdinglarmi, bu akamiz shaharga hokim bo‘libdilar?

(T.Malik. SHaytanat.71)

U kishi sal osmonda yuradilar. “Men dissertatsiya yoqlaganman, menga yangi kafedra ochib beringlar”, degan talab bilan ministrga borganlaridan ham habardormiz.

Berilgan misollarda lar affiksi orqali kinoya ma’nosi anglashilib, ob‘ektga nisbatan salbiy munosabat ifodalanyapti.

Morfologik vositalar yordamida baho bildirishda galik qo‘shimchalari ham muhim hisoblanadi.

- Bolamu bo‘ldingiz. Bir bolam ikki bo‘ldi. Hafa qilmang. Ko‘zimning oqu qorasini sizga topshiryapman. Jigarimni bag‘rimdan uzib qo‘lingizga beryapman. Hor qilmang, jon bolam. (S.Ahmad. Hikoyalar. 358)

- eshittinglarmi, bu akamiz shaharga qokim bo‘libdilar? YO men hato eshitdimmi? Balki dunyoga hokimdirsiz, a? (T.Malik. SHaytanat. 71)

Birinchi misolimizda galik qo‘shimchasi ijobiy baho, ikkinchi misolimizda esa salbiy munosabat ifodalanyapti.

Baho mantiqiy – falsafiy kategoriyalardan bo‘lib, sub‘ektning borliqdagi faktlarga munosabati fikr asosida ro‘yobga chiqadi. SHunga ko‘ra sintaktik usul bilan baho ifodalashda so‘z birikmasi va gap ahamiyatli sanaladi. Baho fikr orqali reallashadi. Fikrning bahosi situatsiya va kontekstual jihatdan aniqlanadi. Gaplarda bahoni ifodalovchi so‘z – gaplar, bir va ikki sostavli gaplar qo‘shma va murakkab gaplar, matn ahamiyatli sanaladi.

- Barakalla o'g'illarim! Qo'llaring dard ko'rmasin! Otalaringga rahmat! – deb qo'yardi A'zam ota.

Baho munosabati qiyosiy baho ifodalovchi so'zlar orqali fikr mazmunida baho bildirar ekan, gaplarda bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, undov so'zlar ham baho ifodalashda ahamiyatli sanaladi.

Paralingvistik noverbal vositalar bilan baho ifodalash nutqiy sharoit bilan bog'liq holda yuzaga keladi. SHu tufayli ham unga chegara qo'yib bo'maydi. Bitta imo – ishora har xil nutqiy sharoitda har xil mazmun kasb etishi mumkin. SHuning uchun ham turli xalqlar imo – ishoralari shakl jihatdan bir biriga mos kelsa-da, mazmun jihatdan to'g'ri kelmaydi.

Paralingvistik vositalar material substrat sifatida inson organizmlari bilan bog'liq holda shakl jihatdan moddiylikka jga bo'lsa, uni matn ichida aks ettirish uchun so'zlar yordamga keladi. Ana shu so'zlar lingvistik nuqtai nazardan fe'l turkumiga birlashadi. SHuning uchun paralingvistik vositalarni ifodalovchi so'zlar imo – ishora fe'llari deb ataladi. Tilimizda bosh, og'iz – lab, burun, elka, qo'l – oyoq boshqa shunga o'xshash tana a'zolari bilan bog'liq ism – ishora fe'llari mavjudki, ular ham baho ifodalashda juda qo'l keladi.

- Fu, - dedi, Valya labini burib, - peshka-ku! Qulvachchak!

(T.Malik SHaytanat. 351)

- Do'kondan ozgina kamomad chiqqan ekan.

- Ozigina deganingiz qancha?

- O'ttiz ming.

- Bu gapni eshitib Hamdam hushtak alib qo'ydi.

Sub'ektiv baho formalari o'zbek tilshunosligida turli terminlar bilan yuritilmoqda. A. N. Kononov, Z.Ma'rufov, A.M.SHcherbak, M.SHamsieva, K.SHarofiddinova, R.Hadyatullaevlar bu hodisaga nisbatan “sub'ektiv baho formalari” terminidan foydalanadilar¹. U. T. Tursunov va J. M. Muhtorovlar to'g'ridan – to'g'ri otlarda “baho formalari”, sifatlarga kelganda “sub'ektiv baho

¹ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л. 1960, 125-бет.

formalari” terminini qo‘llaydilar². Ba’zi olimlar ham sub’ektiv baho formalariga nisbatan “kichraytirish – erkalash affikslari” terminini ishlatadilar.

Turkologiyada, jumladan, o‘zbek tilshunosligida sub’ektiv baho goh so‘z yasovchi, goh forma yasovchi, goh so‘z o‘zgartiruvchi kategoriya sifatida talqin qilinadi.

S.A Ferdaus sub’ektiv baho formalarini hech qanday gruppaga kiritmaydi. Sub’ektiv baho formalari so‘zning leksik ma’nosini tamoman o‘zgartirib yubormaydi (uning yasovchilik funksiyasi bundan mustasno), balki negizdan anglashilgan qo‘shimcha (konnotativ) ma’no kiritadi. U qaysi so‘z turkumiga qo‘shilmasin, doim so‘zlovchining nutq qaratilgan predmetga, shaxsga ijobiy yoki salbiy munosabatini, ma’lum pozitsiyada turib baholashni ko‘rsatadi. Ayrim olimlar sub’ektiv baho formalarini kichraytirish va erkalash ma’nosini bildiruvchilar deb ikkiga bo‘lib o‘rganalidar. Ammo bu formalar o‘z ichida leksik – grammatik qurshov, kontekst, fikr kimga qaratilganligi va nutq qaratilgan shaxsning nutq protsessida ishtirokchi bilan bog‘liq ravishda yana turli – tuman ma’no noziklarini keltirib chiqarishi mumkin. Bunda intonatsiya va situatsiya asosiy vosita rolini bajaradi. Demak, sub’ektiv baho formalari faqatgina kichraytirish va erkalash ma’nolarini bildirmaydi, balki bundan ham boshqa turli xil ekspressiv ma’nolarning yuzaga chiqishida ishtirok etadi. A. Grimm bu haqda shunday yozadi: “Erkalatish formalari faqatgina kam, kichiklik ma’nosini emas, balki iltifot, mehribonlik, erkalatish ma’nolarini ham ifodalaydi. SHuning uchun ham biz kichraytirish formalarini ulug‘, muqaddas, hatto dahshatli predmetlarga ham ularga yaqinlashish, uning muruvvatini, iltifotini qozonmoq uchun qo‘shamiz”¹.

Sub’ektiv baho formalarining tarixiy formalari, evolyusiyasi, grammatik xususiyatlari rus tilshunosligida ham, turkologiyada ham ancha durust ishlangan. Bu formalar o‘z vaqtida M. V. Lomonosov, K. S. Aksanov, A. A. Potebiya, A. A. shaxmatov, L. V. SHcherba, V. V. Vinogradov, L. N. Andreeva kabilarning

² Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1975, 140, 154-бетлар.

¹ Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Тошкент, 1980, 44, 65-бетлар.

diqqatini tortgan edi. Lekin ularning ishlarida ko‘proq bu formalarning grammatik xususiyatlari yoritilgan. Biz esa mazkur ishimizda sub’ektiv bahoning, xususan, ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning ma’no tomoniga e’tibor beramiz.

1.2. Ijobiy istak birliklarining leksik-semantik xususiyatlari

Bizga ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida tilimizning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari bo‘yicha talaygina izlanishlar olib borildi. SHu jumladan, o‘zida so‘zlashuv nutqining eng xarakterli xususiyatlarini namoyon etuvchi xalq og‘zaki ijodiga doir manbalarning til xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha xam samarali ishlar amalga oshirildi.

Daslabki davrda o‘zbek xalq dostonlarining til xususiyatlarini o‘rganishga doir izlanishlar olib borilgan bo‘lsa, keyingi yillarda maqol va matallarning til xususitlari, ertaklarning ayrim sintaktik xususiyatlari to‘y-marosim nomlari, to‘y qo‘shiqlarining til xususiyatlari, o‘zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik jihatlariga doir tadqiqotlar yuzaga keldi¹.

Mazkur ishlarda o‘zbek xalq dostonlarining til xususiyatlari, xalq ertaklarining ayrim semantik xususiyatlari, topishmoqlarining leksik-semantik jihatlarini, to‘y-marosim nomlari va to‘y qo‘shiqlarining lisoniy tahlili kabi masalalar o‘rganib chiqilgan. SHuningdek, o‘zbek og‘zaki so‘zlashuv nutqi haqida ham maxsus tadqiqot olib borilgan². SHunga qaramay, o‘zbek tilining so‘zlashuv nutqiga aloqador bo‘lgan ayrim til birliklari borki, bular bo‘yicha izlanishlar olib borilsa, o‘zbek tilining leksik, grammatik jihatlariga oid etarlicha hal qilinmagan masalalar o‘zining aniq va to‘g‘ri echimini topishga imkon yaratilgan bo‘lardi. O‘zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning til xususiyatlarini o‘rganish masalasi shular jumlasidandir. YUqorida sanab o‘tilgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga doir mavjud tadqiqotlar xalq og‘zaki ijodi manbalarining yozma shakldagi namunalariga asoslanib olib borilgan. Bu xildagi manbalarining yozma

¹ Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” достонининг бадиий тили: Филол.фан. номзоди дисс. ...автореф. –Т., 1949

² Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи. 2 қисм. –Самарқанд, 2006.

shakldan tashqari ogʻzaki shakllari ham mavjud, ular yuzasidan oʻzbek tilshunosligida deyarli izlanishlar olib borilmagan deyish mumkin. Mana shunday manbalardan biri ijobiy istak mazmunini ifodalovchi duolar va muamolar madaniyatida qoʻllanadigan nutqiy etiketlar, frazeologizmlar va ijobiy istak bildiruvchi maqollardir.

Oʻzbek tilida koʻp qoʻllanadigan ijobiy istak birliklari “olqishlar” termini ostida folkloristika tomonidan alohida janr sifati maxsus tadqiq qilingan¹.

Maʼlumki, xalq ogʻzaki ijodi asarlarini toʻplash va ularni tahlil qilish sohasida H.Zaripov, T.Mirzaev, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Xusainova, B.Sarimsoqov, M.Joʻraev, K.Imomov kabi olimlarning xizmati katta. Bu olimlar tomonidan oʻzbek xalq dostonlari, ertaklar, xalq qoʻshiqlari, topishmoqlar va boshqa shu kabi janrdagi xalqimiz maʼnaviyati va madaniyatiga mansub boʻlgan beqiyos merosimiz chuqur oʻrganilgan. SHu jumladan, ularda olqish va qargʻishlar haqida ham fikr yuritilgan.

“Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi” nomli asarda olqish va qargʻishlar alohida janr sifatida qaralib, ular haqida shunday deyiladi: “Soʻzda gʻayritabiyy, sehr-jodu qudrati mavjudligini koʻrish va bu qudrat oldida oʻzini ojiz sezish asosida ikki bir-biriga mazmunan zid boʻlgan janr: olqish va qargʻish yuzaga kelgan”². SHu manbada olqish soʻzi turkiy tillarda maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash kabi maʼnolarni anglatuvchi qadimgi turkiy **al** feʼli oʻzagiga –qы buyruq mayli affiksi hamda –(a)sh harakat nomi qoʻshimchalarining yasalgan deb koʻrsatiladi³.

Oʻzbek xalq olqishlari hayotning turli jarayonida turli sohalar boʻyicha xilma-xil shakl va maʼnoda qoʻllanadi. YUqoridagi tadqiqotda mualliflar olqishlarni ijro oʻrni, funksiyasi va poetik tabiatiga koʻra ikki qismga (kundalik maishiy olqishlar va anʼanaviy olqishlar) ajratishadi. Kundalik maishiy olqishlarning maxsus ijodchi va ijrochilari boʻlmaydi. Ular talab qilingan oʻrinda yoshi nisbatan ulugʻroq boʻlgan kishilar tomonidan aytiladi. Bunday olqishlar aytilish oʻrniga qarab

¹ Кўчқоров Н.Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусиятлари: Фил.фан.ном.дисс.автор. –Самарқанд. 1994

² Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т., Ўқитувчи, 1990. 109–б.

³ Юқоридаги асар. 109–б.

uchrashuv olqishlari, dasturxon olqishlari va biror ish va tadbir boshlanishida aytiladigan olqishlar deb uch turga bo'linadi¹. Bu uch turning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

O'zbek xalq olqishlarining qo'llanish doirasi, o'rni va mazmuni haqida folklorist olimlar olib borgan tadqiqotlar, bizningcha, yana to'ldirilishni talab qiladi.

Ayrim munosabat bilan aytilgan fikrlarni hisobga olmaganda², ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning leksik-semantik va grammatik talqini bo'yicha hozirgi kungacha maxsus izlanish olib borilmagan. O'zbek tilining boy til ekanligini ko'rsatuvchi bu janrning til xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligida shu vaqtgacha o'z chimini aniq topmagan ayrim muammolarning ilmiy jihatdan to'g'ri hal etilishiga katta yordam beradi.

Garchand yuqorida tilga olingan "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" nomli tadqiqotda bu xil iboralar "olqish" termini bilan atalgan bo'lsa ham, biz ishimizda ularni "ijodiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar" deb nomladik. Chunki bunday birliklar olqishlar bilan birga duo iborolari, maqollar, frazemalar, nutqiy etiketlar, so'z-gap shaklidagi ijobiy mazmun ifodalovchi **yashang**, **xormang** kabi undov gaplarni ham o'z ichiga oladi. Bunday birliklarni umumlashtiruvchi xususiyat shundan iboratki, ularning barchasida so'zlovchining o'ziga yoki boshqalarga nisbatan aytilgan ijobiy istagi mazmuni ifodalanadi. Shuningdek, ularning aksariyati o'zbek tilida semantik-grammatik jihatdan turg'un holga kelib qolgan nutqiy etiketlardan iboratdir.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarda quyidagi usullar bilan ma'no ko'chishi hodisasi uchraydi:

a) metafora usulida ma'no ko'chishi: *Ishtahangiz karnay bo'lsin!* (So'zlashuvdan); *Qanoting qayrilmasin! Piru badavlat bo'!* (So'zlashuvdan)

b) metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishi: *Pirlar madadkor bo'lsin!* (So'zlashuvdan) *So'yganing – qo'y, ko'rganing – to'y bersin!* (So'zlashuvdan)

¹ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т.: Ўқитувчи, 1990. 110–б.

² Содиқова М. Фель стилистикаси. –Т.: Фан, 1975. 88–86 б.

Jumlalardagi *so‘yganing*, *ko‘rganing*, *pirlar* so‘zlari metonimik ma’noda qo‘llangan. CHunki *so‘yganing* so‘zi iste’mol qilganing, *ko‘rganing* so‘zi hayotda kechirganing ma’nosida, *pirlar* so‘zi kekxa avliyolar ma’nosida qo‘llangan;

v) sinekdoha yo‘li bilan ma’no ko‘chishi: *Ilohim hech kimni tirnoqqa zor qilmasin*. (So‘zlashuvdan) “*Qo‘l-ko‘zing dard ko‘rmasin iloyim*”, - dedi xola mehr bilan. (S.Zunnunova)

Bu misollarning birinchisida *tirnoq* so‘zi bola ma’nosida, ikkinchisida *qo‘l-ko‘zing* butun tana ma’nosida qo‘llangan.

Bu xil birliklar tarkibida so‘z ma’nolarining kengayishi hodisasini ham kuzatish mumkin. *O‘qigan duolarimizning savobi shu erdan o‘tganlarga tegsin*. (So‘zlashuvdan) *Qani, bir duo qilaylik. YUrtimiz suvga serob bo‘lsin*. (S.Ahmad) Misollardagi **duo** so‘zi “Qur’on oyati” ma’nosini va “*yaxshi tilak bildirish*” ma’nosini ifodalagan. SHuningdek, *Boshing(iz) to‘ydan chiqmasin* jumlasida qo‘llangan **to‘y** so‘zi *nikoh to‘yi, sunnat to‘yi, hosil to‘yi, hovli to‘yi* kabi iboralar tarkibida ham ishlatiladiki, bu mazkur so‘zning ma’nosi kengayganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, frazeologik birliklar oddiy so‘zlardan farq qiladi. Ular voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Ular kishining xatti-harakatini baholaydi. Frazeologik birliklarning ma’no tarkibida ko‘pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birliklarning denotativ ma’nosiga hissiy-ekspressiv bo‘yoqdorlikni yuklaydi¹.

Ijobiy istakni ifodalovchi birliklar frazema shaklida qo‘llanganda yoki ularning tarkibida frazemalar qatnashganda, bunday birliklar ham mazmunan, ham uslubiy jihatdan ta’sirchanlikka ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida shunday ijobiy istak mazmunini ifodalovchi sodda gaplar borki, ularda ijobiy istak aynan uning tarkibidagi frazema ma’nosidan anglashiladi. Bunday gaplarda kesim ibora bilan ifodalanligi sababli, gap mazmunan ekspressivlikka ega bo‘ladi. Masalan: *Naziraga ko‘z tegmasin, juda suluv bo‘libdi*.

¹ Йўлдошев Б. Фразеология терминидан лавҳалар. –Самарқанд: Суғдиёна, 1998. 27-82 б.

(S.O‘nar) *Bu nikohga o‘zing rozi bo‘lding. Endi yoshlarning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelsin.* (I.Rahim)

Ishimizda ijobiy istakni ifodalovchi **ro‘yobga chiqmoq, tup qo‘yib, palak yozmoq, ko‘z tegmoq** (bo‘lishsiz shakli) kabi iboralarning ham semantik xususiyatlari yoritib berilgan.

Ma‘lumki, muayyan til va jamiyatning o‘zaro munosabatlari o‘rganilganda, so‘zlovchining qanday sotsial guruhga mansubligi, kasbi, mashg‘uloti kabi omillar qatorida uning yoshi va jinsi ham e‘tiborga olinadi¹. Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning yoshga va jinsga ko‘ra ham farqli qo‘llanish holatlari kuzatiladi.

SHunisi xarakterliki, -gur affiksli mayl shakli qatnashgan birikma o‘zbek tilida asosan katta yoshdagi shaxslar tomonidan qo‘llanadi. Ularga baraka topgur (umringdan baraka topgur), bolang ko‘paygur, boy bo‘lgur, uyingga bug‘doy to‘lgur, omon bo‘lgur, umring uzoq bo‘lgur, boshing toshdan bo‘lgur, bo‘ying cho‘zilgur birliklarini misol sifatida keltirish mumkin.

-gur affiksli ijobiy istak birliklari, shuningdek, ayollar nutqida ham faol qo‘llanadi. Odatda, qarg‘ishni ifodalovchi –gur affiksli birliklarni bo‘lishsiz shaklida qo‘llash ayollar nutqi uchun xos bo‘lib, bunda ijobiy istak bildiradi: **basharang qurmagur, qurib ketmagur** kabi.

Bu xil qurilmalarda salbiy istak ma‘nosi kuchsizlanib, neytral holdagi istak mazmuni ifodalanadi: *Ey, qurib ketmagur, nega indamading shu vaqtgacha? Basharang qurmasin, tezroq keta qolmaysanmi!* (O‘.Hoshimov)

Bunday birliklarga yana **bo‘yning uzulmagur, tinmagur, o‘lmagur** so‘z va so‘z birikmalarini ham misol sifatida keltirish mumkin. Ayollar nutqida ijobiy istak ifodalovchi nutqiy birliklar rang-barang bo‘lib, ular **–(a)y, –sin** kabi mayl shakllarida ham beriladi. *Aylanay, bo‘yingga qoqiy, sadag‘ang ketay, onaginang aylansin, onang qoqindiq, bo‘yingdan o‘rgulay* kabi birliklar ham asosan ayollar nutqida ishlatiladi: *–Xush kelibsiz, –dedi Oftob oyim... –Xushvaqt bo‘linglar, aylanay, qix... –dedi xotin.* (A.Qodiriy) *Voy bo‘yingga qoqiy. Voy sadag‘ang ketay!*

¹ Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. –М.: Просвещение, 1979. –с.379

–dedi u. (O‘.Umarbekov) *Voy onaginang aylansin, kel–kel, bo‘yingdan o‘rgilay!*
(S.Ahmad) *O‘ktamjon, onang qoqindiq, tinchgina uxla!* (Oybek)

-gur affiksli qurilma orqali marhumlarga nisbatan ham ijobiy istak bildiriladi: **joyi jannatda bo‘lgur, xudo rahmat qilgur, go‘ri to‘la nur bo‘lgur**. Bunday birliklar o‘zbek xalqining marhumini hurmat bilan tilga olish odatidan kelib chiqib shakillangan birliklardir.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar leksikasiga xos xususiyatlardan biri ularda o‘zbek xalqining diniy e‘tiqodi hamda etiketi bilan bog‘liq bo‘lgan antroponimlarning qo‘llanishidir. Bunday nomlar qatoriga *Ollox, hazrat Ali, Hazrati Nux, Hazrati Bahovaddin, Hazrati Dovud, Imomi A‘zam, Luqmoni Hakim, Bobo Dexqon, Bibi Fotima*, kabi nomlar kiradi. Bunday birliklar tarkibida, shuningdek, “qilgan duolarimiz ijobat bo‘lsin” ma’nosini bildiruvchi **omin** so‘zi, “Ollx ulug‘dir” ma’nosini bildiruvchi Olloxu akbar so‘zi birikmasi va eski o‘zbek tilida “xudo, Ollox” ma’nosi bilan murojat brligi sifatida qo‘llangan¹. Hozirda esa mazmunan yuklamaga yaqinlashgan **ilohim (ilohi, iloyo)** so‘zlari faol ishlatiladi.

Ijobiy istak birliklari ularning mazmuniy xususiyatlariga, nutqiy sharoitga hamda real voqelik bilan bog‘lanishga ko‘ra tasnif qilinib, quyidagi xulosalarga kelindi; duo va olqish shaklidagi ko‘plab ijobiy istak birliklari real voqelik bilan bevosita bog‘lanmay, metaforik mazmunni yuzaga keltiradi: *Tuproq olsang, oltin bo‘lsin! Hamyoningga Xizr nazar solsin. Olgin-u, soldirma, ko‘zlaganig kumush, tishlaganing bol, dushmanlarinig lol bo‘lsin, olloxu akbar!*²

Metaforik mazmun ifodalash folklor asarlari tiliga xos bo‘lib, bu, ayniqsa, maqol va matallar, topishmoqlar hamda olqishlar tilida yaqqol ko‘rinadi. Ulada yashiringan mazmun asosan ekstralingvistik asoslalar orqali anglashiladi³.

Tadqiqotda ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning semetrik xususiyatlari o‘rganilib, quyidagicha tasnif qilindi:

¹ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. –289 б.

² Ушбу дуо матни Н.Н.Қўчқоровнинг юкорида кўрсатилган авторефератидан олинди. –16 б.

³ Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция. Ўзбек тили ва адабиёти. 2005. 5–сон. 29–33 б.

1. YUrtning tinch, farovon bo'lishini tilash mazmunidagi ijobiy istak birliklari: *Omin, yurtimiz tinch, xonadonimiz obod bo'lsin!* (So'zlashuv) *Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!* (I.Karimov)

2. Salomatlik va uzoq umr tilash mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari: *Sog' bo'l(ing). Dunyo turguncha tur(ing).* (So'zlashuvdan)

3. To'y va yubileylarda aytiladigan, muborakbod etish mazmunini bildiruvchi ijobiy istak birliklari: *to'ylar muborak!* (So'zlashuvdan) Biz kamtar, *bag'ri keng, mehnatkash olimni tabarruk etishim yoshi bilan qutlab, unga uzoq umir, sog'liq-salamatlik, ilmiy ishlarida yangi muvaffaqiyatlar tilymiz.* ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnalidan)

4. Farzand bilan bog'liq ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar: *Qozon to'la osh bersin, yosti to'la bosh bersin.*

5. Dasturxon atrofida aytiladigan ijobiy istak birliklari: *Omin, qadam etdi, balo etmasin. Osh berganga bosh bersin, ketmas davlat, keng fe'l bersin.* (So'zlashuvdan)

6. Oq yo'l tilash mazmunini ifodalagan ijobiy istak birliklari: *Oy borib, omon kel(ing). Yo'ling(iz) bexatar bo'lsin. Oq yo'l!* (So'zlashuvdan)

7. Imorat qurish oldidan aytiladigan ijobiy istak birliklari: *Omin. Boshlagan ishlaringga Ollox madadkor bo'lsin, ishlaring baroridan kelsin, Hazrati Nuh o'zi qo'llasin!* (So'zlashuvdan)

8. Bayram bilan muborakbod etish mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari: *YAngi yil bilan! Hayit muborak bo'lsin!*

10. Taskin berish mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari: *Xudo rahmat qilsin! Xudo sabir bersin! Ko'rgan-kechirgan(iz) shu bo'llsin.* (So'zlashuvdan)

11. Qutlash, tabriklash mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari: *Unvon muborak bo'lsin! YAngi uylar muborak.*

12. Ish jarayoniga aloqador ijobiy istak birliklari: *Hormang, Xirmonga baraka. Ollo madadkor bo'lsin!* (So'zlashuvdan)

13. Rasm-odat ifodalovchi ijobiy istak birliklari: *Xush kelibsiz. Xushvaqt bo'l(ing). Ishtahang(iz) karnay bo'lsin! Xayrli kech! YAxshi tushlar ko'r(ing).* (So'zlashuvdan)

14. Ijobiy modal munosabati ifodalovchi birliklar: *Aylanay, o'rgulay, jonim tasadduq bo'lsin* kabi.

1.3. Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning morfologik xususiyatlari

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar tarkibida kesim ko'pincha buyruq-istak maylidagi fe'l shaklida qo'llanadi. Bunday qurilmalarda bror ish-harakatni bajarishni boshqalarga buyurish, qistash, undash kabi ma'no emas, faqat istak, iltijo, umid bildirish kabi mazmun ifodalanadi: *Aziz boshing omon bo'lsin, hech qachon dard ko'rmagin, ishlaring o'ngidan kelsin.* (So'zlashuvdan) *Vatan gadosi, kafan gadosi qilma ilohim!* (T.Malik) *Nondek aziz bo'lgin, suvdek serob bo'lgin.*(So'zlashuvdan)

O'zbek tili grammatikasiga doir manbalarda ko'rsatilishicha, buyruq mazmunini ifodalovchi fe'llarning II shaxs shakli sof buyruqni, III shaxs shakli boshqa shaxslar orqali buyurish mazmunini, birinchi shaxs shakli esa buyruq mazmunini emas, biror ish-harakatini bajarish uchun istak mazmunini bildiradi¹.

Ijobiy istak birliklari tarkibida buyruq-istak maylidagi fe'lning har uchala shaxsdagi shakl istak, umid qilish, iltijo kabi mazmunini bildiradi.

SHuningdek, buyruq – istak maylidagi fe'lining II shaxs birlik shakli tarkibida iltijo, istak mazmunini kuchaytirish uchun ko'pincha –gin (–gil) morfemalari qo'shib ishlatiladi: *Rahmat, qizim! ... qo'sha qaring, o'zingdan qo'paygin, bolam!* (O'.Hoshimov)

Ma'lumki, xalq maqollari mazmuniga ko'ra rang–barang bo'lib, ularda istak mazmuni ham ifodalanishi mumkin².

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 1–қисм. –Т.: Фан, 1980. 75–б.

² Қаранг: Содикова М. Русча–ўзбекча мақол ва маталлар луғати. Ўзбекча–русча мақол ва маталлар луғати. – Т.: Фан, 2005. 410–б.

SHunisi xarakterliki, kesimi buruq-istak maylida qo‘llangan maqol va matallarning mazmunini ko‘p hollarda ijobiy istak ifodalangan bo‘ladi. Bunday maqollarning fe‘l kesimi ikki xil shaklda –bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda qo‘llanganini kuzatish mumkin. Masalan: *Uyquni tinchdan ber, o‘limni kechdan ber. O‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, qo‘l-oyog‘i tez bo‘lsin. Go‘ringdan suv chiqmasin, uyingdan quv chiqsin. YOmonga ishing tushmasin, qulongga qushing tushmasin.*

Ijobiy istak birliklari tarkibida –kur (–gur, –qur) affiksli fe‘llar faol qo‘llanadi: *Uyingga bug‘doy to‘lgur, yoki acha, de, yoki katta oyi, de, nima, men sen uchun kim bo‘laman? (S.Ahmad) –Ha umringdan baraka topgur–a, tursang–ku bo‘lardi–ya. Ha. Bolang ko‘paygur–a. (O‘.Hoshimov)*

Ijobiy istak birliklari tarkibida qo‘shma fe‘lning ot+fe‘l tipida yasalgan turi juda keng qo‘llanadi. Ayniqsa, **bo‘l** so‘zining bog‘lama vazifasida kelishi ko‘p uchraydi: *Er oldida darmon bo‘l, malham bo‘l, Yo‘lboshchingga qanot bo‘l–u hamdam bo‘l. (N.Narzullaev) Iloyo umring uzoq bo‘lsin, baxtli bo‘l! Insofli, to‘fiqli bo‘l, mehnatkash bo‘l! (O‘.Hoshimov)*

Ijobiy istak birliklari tarkibida juft va takroriy so‘zlarning qo‘llanishi ma‘lum darajada o‘ziga xosdir. Sinonimlardan tashkil topgan juft so‘zlar ijobiy istak birliklarida ko‘p qo‘llanadi: *Xayru baraka, to‘kin–sochinlik, tinchlik –omonlikni bersin iloyo! (So‘zlashuvdan) Baxtli bo‘l, jon singlim, qayin og‘ang eson–omon kelsin. (O‘.Hoshimov)*

Ayrim vaqtda bu xil juft so‘zlarning bir komponenti aniq ma‘no ifodalamasligi mumkin: *Dasturxonimizdan qut–baraka arimasin, balo–qazolardan asrasin. Qo‘ni–qo‘shni oldida yuzing yorug‘ bo‘lsin. (So‘zlashuvdan)*

Otlashish hodisasi, malumki, so‘zlashuv nutqi uchun xarakterli xususiyatlaridan biridir¹. Ijobiy istak mazmuni ifodalangan birliklarda ham boshqa turkum so‘zlarining otga ko‘chishi tipiq hodisadir. Masalan: *biring ming, mining tuman bo‘lsin, (So‘zlashuvdan) YAxshiga yondashtir, yomondan adashtir* qurilmalarning birinchisida *biring, mtnging* sifatlari otlashgan. Ijobiy istak ifodalovchi nutqiy birliklarda bu hodisa faol kuzatiladi. Chunki bunday

¹ Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи. 1–қисм. –Самарқанд, 2006. 28–б.

birliklarning ixcham tuzilshiga bo'lgan talab shuni keltirib chiqargan. Bu otlashgan so'zlarning aniqlanmishi ellipsisga uchrashi, ya'ni qisqartirilishi bilan bog'liq. Ijobiy istak bildiruvchi nutqiy birliklarda –*gur* affiksi bilan yasalgan buyruq maylidagife'llarning ham otlashgani kuzatiladi: *Ekkanini, tikkanni xudo rahmatiga olsin!* (So'zlashuvdan) *Baraka topgurning zap ovozi bor-da* (S.Ahmedov) Bunda - *gur* affiksi bilan birga sifatlashib, shaxs bildiruvchi so'zning aqllovchi vazifasiga o'tadi. Aniqlanmish ham qisqarsa, uning otlashishi kuzatiladi. YUqoridagi misolda shu hodisa kuzatilgan.

II bob. Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning sintaktik xususiyatlari

2.1. Ijobiy istak birliklarida gap bo'laklarining semantik sintaktik pozitsiyasi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar barqaror so'z brikmasi, shuningdek, sodda yoki qo'shma gap shaklida reallashadi. Masalan: *Niyatingga etkur, quloq sol*, (H.Olimjon) *Xudoyo xudovondo, bu ko'rguliklarni hech kimning boshiga solma!* (SHukrullo) - SHu xonadonda to'y bo'lsin – o'lim bo'lmasin. (So'zlashuvdan)

Ijobiy istak birliklarini, ular istak, xohish, iltijo, tashviq kabi maznunni bildirib kelganligi uchun, gapning kuzatilgan maqsadga ko'ra 4- turi (istak gap turi)¹ ga kiritish mumkin. Chunki bu hil qurilmalar shaklan buyruq gapga o'xshasa ham, mazmuman buyruqni emas, istak-xohishini ifodalaydi.

Kesimi buyruq maylidagi fe'llardan ifodalangan gaplar buyruq gap hisoblanadi. Suhbat aytaylik, kelnglar, jo'ralar, o'rtoqlar. (*Mukumiy*)

Demak, buyruq gaplarning til sathida darak, so'rok gaplardan farq qiladigan o'ziga xos modeli bor. Buyruq gapning modeli K /b.m.f./dir¹. Bu model

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: 1995. 24–б.

nutqda turli variantlarda namoyon bo'ladi: shaxs-son bo'yicha variantlari, tuzilishiga ko'ra variantlari (yig'iq, yoyiq) va boshqalar.

Ba'zan buyruq gapning markaziy qismi — kesim bevosita ifodalanmasligi mumkin. U vaqtda bevosita ifodalanmagan buyruq maylidagi fe'ldan ifodalanishi lozim bo'lgan kesim nutq vaziyatidan anglashilib turadi. Masalan: Hamma dalaga!

Buyruq gaplar ham shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligidan iborat butunlikdir.

Buyruq gaplar kesimining buyruq maylidagi fe'ldan ifodalanishiga ko'ra umumiilikni hosil qilsa ham, lekin bunday gaplar shaxs va son belgisiga ko'ra turli variantlarda namoyon bo'ladi.

Shaxs paradigmasi birlikda:

I shaxs. Arz etayip epdi yozib nomalar. (*Muqimiy*)

II shaxs Keling, chaqchaqlashaylik.

III shaxs. Omon bo'lsin do'stlarning bari. (*H.O.*) SHuningdek, kerak, lozim, darkor so'zlarining harakat nomi bilan birgalikda qo'llanilishidan iborat bo'lgan gaplar ham butsruq gap paradigmasiga kiradi.

Buyruq gaplar umumny buyruq arxisemasi bilan bir butunlikni hosil qilsa ham, lekin buyruq arxisyomasi bir qator semalar orqali namoyon bo'ladi:

Maslahat: Ortiqcha gapirma. Bilim cho'qqilariga egallash kerak. Ibrat olgil yon qo'shshshiz SHarif boydan. (*G'.G'.*)

iltimos: Alisher, eski ginalarni unuting, yana o'z joyingizni egallang. (*Uyg'un*)

Tashviq: Bolangni o'ldirgan, xotiningni xazon qilgan boyning boylarning jazosini ber. (*H.H.*)

Har uch semada takrorlanayotgan va ularning hammasini birlashtiruvchi sema buyruq semasidir. SHuning uchun ham bu sema arxisema hisoblanadi.

Buyruq gaplarda shakl va mazmun munosabati

Buyruq gaplar shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan butunlikdir. Buyruq gaplarda buyruq arxisemasi tarkibida birlashgan bir necha

semalar shakliy jihatdan birlashtiruvchi buyruk shaklining turli variantlari orkali namoyon bo'ladi.

Kesimi shart-istak maylidagi fe'llardan ifodalangan gaplar istak gaplar sanaladi. Masalan, Bir go'shai bog' bo'lsa-yu, sen bo'lsangu men. (Bobur)

Istak gaplar so'zlovchining istak-xoxishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday gaplar so'zlovchining axborot berishi belgisiga ko'ra darak gaplar bilan umumiylikni hosil qiladi. Lekin til sathida o'zining alohida modeli mavjudligi va nutqda konnotativ ma'no ma'lum axborot berish bilan birga, so'zlovchining istagi, xohishining ifodalanishiga ega bo'ladi.

Istak gaplar so'zlovchining istagini ifodalaganligi uchun ham u kelgusida bo'lishi orzu qilinayotgan voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida axborot beradi. Masalan: Oliy o'quv yurtini bitirsam, ajoyib muhandis bo'lsam. SHaharlarga, qishloqlarning bog'-rog'larga burkanishiga o'z hissamni qo'shsam.

Ijobiy istak birliklarini asosiy qismini his-hayajon ifodalovchi gaplar tashkil qiladi. Til sathidagi yuqorida ko'rsatilgan gapning ifoda maksadiga ko'ra gap modellari nutq jarayonida turli variantlarda namoyon bo'ladi. Nutq sathida esa bu variantlar yana qo'shimcha belgilarga ham ega bo'ladn. Bu belgilardan biri so'zlovchining his -hayajonidir.

Demak, darak, so'roq, buyruq, istak gaplarning nutq jarayonida so'zlovchining his-hayajonini ham ifodalashi ularni his-hayajonli gapga anlantiradi. His-hayajonli gap undov gap deb yuritiladi.

Undov gaplar shakliy tuzilish jihatdan ham farqlovchi belgilarga ega bo'ladi:

1) undov ohangi, kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi;

2) tarkibida hayajon bildiruvchi so'zlar ishtirok etadi. Masalan, *Oh, Nasibang to'liq bo'lsin! Niyatlar ulug' bo'lsin! Tashriflar qutlug' bo'lsin! Dorilul zamon keldi, Mohi ramazon keldi!* (N.Narzullaev) *Hasanali suyunchini topshirgandan so'ng duoga qo'l ochdi: - Hayriyat, Ollox taolo umri bilan bergan bo'lsin!* (A.Qodirov) *Oy borib, omon kel, o'g'lim! - dedi bo'g'iq ovozda.*(O'.Hoshimov) *YAshang! Bor bo'ling!* kabi.

O'zbek tilida bir sostavli gaplarning shaxsi aniq gap turidan tashqari so'z-gap shaklidagi turi ham mavjud, bu xil shakllangan gaplar his- hayajon ifodalab, undov gap sanaladi¹. Undov gaplar slomlashish, xayrlashish, rag'batlantirish, mamnunlik, taskin, ajablanish kabi mazmunlarni ifodalaydi. Masalan: *Salomat bo'ling! Hormang!*

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning ko'p qismini undov gaplar tashkil qiladi: - *Xayr, amakilar! – Allohning panohiga, Anvar!* (A.Qodiriy) *Rahmat, sog' bo'lsinlar!* (A.Qodiriy) – *YAngi yilingiz muborak bo'lsin!* (Gazetadan) *Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!* (Gazetadan) *YO xudo, do'st – dushman oldida yuzimni yorug' qil!* (O'.Hoshimov)

Ma'lumki, ijobiy istakning ifodalanishida ega va kesimning funksiyasi o'ziga xos xususiyatga ega.

Bu xil birliklarda ega turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi bilan birga, ayrim o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

a) ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarda ko'pincha xudo, Olloh (Alloh), YAratgan so'zlari va ularning sinonimlari ega vazifasida keladi. *Xudo yor bo'lsin! Olloh panohida asrasin!* (So'zlashuvdan);

b) ba'zi holatlarda yuqoridagi so'zlar o'zlik olmoshi bilan birga qo'llanadi va qaratqich kelishigi affiksini olib aniqlovchili birikma shaklida ishlatiladi: *O'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishishimizda YAratganning o'zi madadkor bo'lsin!* (I.Karimov) *...sog'-salomat bo'l, piru badavlat bo'l, yomon ko'z, so'zlardan Ollohning o'zi asrasin.* (So'zlashuvdan) *Ollohning o'zi oq yo'l bersin* (A.Qodiriy);

v) ba'zan ega vazifasidagi bu xil aniqlovchili birikma orasida boshqa bo'laklar ishtirok etishi mumkin: *Olloh sizni va siz kabilarni shaytanat olamidan o'zi asrasin* (T.Malik);

g) bu xil birikma tarkibidagi qaratqich kelishigi affiksi tushib qolib, **o'zi** so'zi ega vazifasida keladi: *YOmon ko'z, yomon hasadlar, ziyon-zahmatlardan o'zi asrasin;*

¹ Усмонов С. Ўзбек тилида ундов гаплар. –Т.: Фан, 1957.

d) ega vazifasida kelgan **Olloh** soʻzi va uning sinonimlari gapda qoʻllanmasa ham, ega shu soʻz ekani anglashilib turadi: *Olti urugʻning oshini bersin, Luqmoni Hakimning yoshini bersin.* (Soʻzlashvdan) *YOmon koʻzlardan asrasin.* (Soʻzlashuvdan)

Kesimning qoʻllanishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

a) ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar tarkibida kesimlar turli soʻz turkumlari orqali ifodalanishi bilan birga, bu xil birliklarda koʻpincha feʻlning buyruq mayli shaklidagi soʻzlar kesim boʻlib keladi: *Oʻlma, ey qoʻli qand, jafokash bogʻbon, YAsha ber, bogʻlarga chulgʻangan Vatan!* (Gʻ.Gʻulom);

b) bu xil birliklar tarkibidagi kesimlar sostavli kesim, ayniqsa sostavli ot kesim shaklida koʻp qoʻllanadi: *Iloyo umring uzoq boʻlsin, baxtli boʻl, insofli, tovfikli boʻl, mehnatkash boʻl,* (Oʻ.Hoshimov) *Dushmanlar xarob, munofiqlar betob oʻlsin...* (A.Qodirov)

Sostavli ot kesimlar tarkibidagi koʻmakchi fʻel vazifasida **boʻlmoq, etmoq, qilmoq** feʻllar ishlatiladi. SHuni taʼkidlash lozimki, **boʻlmoq** feʻlining qoʻllanish doirasi boshqa feʻllarga nisbatan ancha kengdir.

Ijobiy istak birliklari tarkibida gap boʻlaklari koʻpincha birikmali holda (yoyiq holda) keladi:

- ega birikmali qoʻllanadi: *YUrtimizga qasd qilganlar past boʻlsin, oʻtirgan oʻrnimiz yoʻqolmasin* (S.Ahmad);

- kesim birikmali qoʻllanadi: *Davralardan besovrin qaytgulik qilmasin seni. Alloh omadingni bersin* (S.Ahmad);

- aniqllovchi birikmali: *Ota goʻshasidan uchib ketgan qush, qoʻngan joying guliston boʻlsin.* (R.Ochil);

- toʻldiruvchi birikmali qoʻllanadi: *Ismi boru, jismi yoʻqdan asrasin, Jismi boru, ismi yoʻqdan asrasin* (N. Narzullaev);

- hol birikmali qoʻllanadi: *Suvdek serob boʻlib, nondek aziz boʻlib yashanglar.* (Soʻzlashuvdan)

2.2. Ijobiy istak birliklari tarkibida undalmalarning qoʻllanishi

Ijobiy istak birliklaridagi mazmun, asosan, ma'lum shaxsga qaratilgani uchun ham bu xil birliklar tarkibida ko'pincha shaxs otlari undalma vazifasida keladi.

So'zlovchining nutq qaratilgan shaxs yoki predmetni ifoda qiluvchi mustaqil so'z yoki so'z birikmasi **undalma** deyiladi. Undalma gapning umumiy mazmuni bilan bog'liq bo'lib, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Undalma bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi. Lekin undalma undosh intonatsiyasi, pauza bilan ajratilishiga ko'ra hamda kesim bilan bog'lanmasligi jihatidan egadan farq qiladi. Undalma ko'proq so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifoda qiladi. **Kechir meni, Onaxon, ishga ko'milib ketdim.** (Yashin.)

Undalma leksik-semantik jihatdan quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Konkret ism va familiyasi ifoda qilinadi: **Men ham o'shanda siz ovora qilgan edim-ku, Roziya!** (P.Q.)

2. Kasb-hunarni, mashg'ulotni ifoda qiladi: **Xo'sh, o'rtoq komandir, qanaqa kino ko'rdingiz?** (A.Q.)

3. Mansab-amalni ifoda qiladi: **To'qay masalasini jiddiy o'ylashimiz kerak, rais!** (H.G'.)

4. Unvonni ifoda qiladi: **O'rtoq kapitan, topshiriq muvaffaqiyatli bajarildi.** (I.R.)

5. Qarindoshlik, yaqinlik, do'stlikni ifoda qiladi: **Azonda to'qayda nima qilib yurgan edingiz, xola?** (S.A.)

6. Holat, xususiyatni ifoda qiladi: **Kechirasiz, yigit, sizga boshqa ish berishar.** (P.Q.)

Undalmalar gapning boshida, o'rtasida, oxirida keladi. Bu undalmalarning gapdagi o'rni, uning semantik vazifasi, stilistik xususiyati, gap tuzilishi va mazmuniga bog'liq.

Tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun xizmat qiluvchi undalmalar, undosh so'zli undalmalar, odatda, gap boshida keladi: **Yormat, bu yerda so'zni chuvaltirma.** (O.)

Undalma gap oxirida keladi. Bu vaqtda soʻzlovchi uchun nutq qaratilgan shaxs, tinglovchiga tegishli boʻlgan fikr muhim boʻladi: **Suhbatingizdan nihoyatda mamnunman, ustoz.** (S.A.)

Boʻlaklarga ajratiladigan gaplarda undalma odatda gap oxirida keladi: **Salom, qizim.**(H.O.)

Undalma gap orasida keladi. Bu vaqtda tinglovchiga tegishli boʻlgan fikr yana davom ettiriladi. Bunday undalmalar, odatda, logik urgʻu olmaydi: **Siz baxtlisiz, Olimjon aka, siz halqimiz uchun koʻp xizmat qildingiz.** (Jurn.)

Undalmalarda intonatsiya, gap xarakteriga koʻra, turlicha boʻladi: darak gaplarda past ohang bilan aytiladi, soʻroq gaplarda alohida urgʻu olgan undalmalardan keyin choʻziq pauza boʻladi: buyruq gaplarda gap mazmuniga qarab, past hamda kuchliroq ohang bilan aytiladi; undov gaplarda kuchli ohang bilan aytiladi.

Undalma intonatsiyasi uning gapda kelgan oʻrniga ham bogʻliq boʻladi. Undalma gap boshida kelganda, undash, chaqirish intonatsiyasiga ega boʻlib, pauza bilan ajratiladi; gap oʻrtasida kelganda undalmadan oldingi pauza keyingisidan qisqaroq boʻladi; undalma gap oxirida kelganda ham undalmadan oldingi pauza uncha choʻziq boʻlmaydi.

Demak, undalma soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi... Undalma II shaxsga qaratilgan boʻladi. Undalmaning asosiy vazifasi nutqqa, aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir. Bu xususiyat undalmaning dialogik nutq uchun xarakterli ekanini koʻrsatadi»².

Haqiqatan ham, undalma nutq qaratilgan II shaxsni koʻrsatadi, uning diqqatini tortadi va shuning uchun ham dialogik nutqqa xos. Murojaat ifodalovchi soʻz ham mohiyatan shunday - grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga toʻla mos tushadi. Lekin mazmunan murojaat obʻektini ifodalovchi soʻz, murojaat shakli sifatida, soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obʻektni ifodalaydi. Murojaat shaklining nutqdagi reallashuvi II shaxs bilan bogʻlanadi. Biroq murojaat orqali uzatiladigan, anglatiladigan xabar - maʼlumot, fikr dastlab

² Фуломов А.Ф., Аскарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1965, 183-6

murojaat qiluvchi sub'ekt ongida hukm sifatida shakllanadi (aytsammi-aytmasammi), yuqorida aytib o'tilganidek, bu holat nutqda bevosita reallashmaydi, murojaatning faqat ikkinchi bosqichi nutqda o'z ifodasini topadi, reallashadi.

Nutq doimo ham bir shaxs yoki ob'ektga yo'naltirilgan bo'la bermaydi, u «bir necha shaxs, predmetlarga qaratilganda, uyushiq holda qo'llanishi mumkin. Masalan: Daraxtlar, bo'stonlar, sendan so'rayman. (F) Lekin undalma o'ziga (undalmaga) bog'langan ajratilgan izohlovchi bilan kelganda, ba'zi jihati bilan uyushiq undalmaga o'xshab ko'rinsa ham, uyushiq bo'lmaydi: undalma birgina bo'ladi. Masalan, Farzandim, shunqorim, senga yo'l bo'lsin? (F): farzandim - undalma, shunqorim - ajratilgan izohlovchi»¹.

Ma'lumki, undalma gapning boshqa bo'laklari bilan, bir gap ichida bo'lishiga qaramay, gapning biror bo'lagi vazifasida kelish yoki kelmasligi jihatidan yondashilsa, grammatik aloqaga kirishmaydi, biroq intonatsiya vositasida gapga bog'lanadi. Gapga mazmun jihatidan aloqador bo'ladi. Undalma bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ham unga grammatik jihatdan emas, mazmunan aloqador bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, undalma gapning grammatik jihatdan bog'liq - struktural elementi bo'lmasa ham, unga (gapga) grammatik jihatdan bog'lanmasa ham, mazmunan undalma bilan bog'lanadigan gap bo'laklari bor. Bunga sabab shuki, undalmaga mazmunan bog'lanayotgan gap bo'laklari ajratilgan sanaladi. Ajratilgan bo'laklar esa doimo nisbiy mustaqillikka ega bo'ladi. Ana shu nisbiy mustaqillik ularni undalmaga mazmunan bog'laydi. Bog'langan so'zlar undalmaning izohi sifatida belgilanadi. Bu grammatik tahlildir, lingvistik aspektdagi yondashuvdir.

Hodisaga sotsial nuqtai nazardan yondashilsa, grammatik izoh deb belgilanayotgan so'zlar bevosita murojaatning davomidir. Masalan,

Xorijdagi o'zbeklarim,
O'lmay qolgan o'zliklarim,
Qani endi yurtga keling,
O'z xonlarim, o'z beklarim.

¹ Фуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1965. 188-6

(Omon Matjon)

Toʻrtlikning ikkinchi misrasi ham, toʻrtinchi misrasi ham undalma sanalmaydi. Ular undalmaning, yaʼni birinchi misraning ajratilgan izohlovchilaridir: xoriydagi oʻzbeklarim, yaʼni oʻz xonlarim, oʻz bekларim tarzida «yaʼni» dan keyin kelgan aborot ajratilgan izohlovchidir.

Agar «Farzandim, shunqorim, senga yoʻl boʻlsin» gaplarida «mening Vatanim» hamda «shunqorim» undalma emas, ajratilgan izohlovchi, deb belgilansa, ijtimoiy - mantiqiy jihatdan ular ham murojaat obʼekti sanaladi, yoyiq izohli murojaat shakli sifatida belgilanadi. «Murojaat» soʻzi orqali anglashiladigan tushuncha ham shu fikrga mos tushadi. «Oʻzbek tilining izohli lugʼati»da berilgan izoh ham buni dalillaydi. Izoh quyidagicha:

«Murojaat» [a] Birovga qaratila aytilgan gap, qilingan daʼvat, chaqiriq va sh.q Murojaat qilmoq 1) biror ish, iltimos, chaqiriq va sh.q bilan birovga qarata soʻz aytmoq. Iltimos bilan murojaat qilmoq... 2) Maʼlumot olish uchun qaramoq. Ensiklopediyaga murojaat qilish¹.

Undalmalar kam ishlatilganiga sabab, til vujudga kelib, shakllanishi jarayonida undalmasiz ham har bir jumlaning oʻzi murojaatdan iborat boʻlgan. Murakkablik darajasidan kelib chiqilsa, faqat undalma emas, tilning barcha munosabat vositalari, jumladan, gapning oʻzi ham sodda boʻlgan.

A.R.Sayfullaev davom etib yozadi: «Undalmalar X1-X1V asrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar asarlarida uchraganidek XU-X1X asrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilarning asarlarida ham uchraydi. Bu davrlarda asosan undalmaning qadimgi yodgorliklarda, X1-X1V asrlarda qoʻllangan turlari, shu bilan birga koʻchma maʼnoda qoʻllangan undalmalar ham uchraydi. Oʻz-oʻziga undash undalmalari esa keng koʻlamda qoʻllanila boshlandi»¹.

Koʻchma maʼnoda murojaat qilish ham shu davr emas, ancha oldingi davrlar bilan bogʻlanadi. Oʻz - oʻziga murojaat esa birlamchi bosqich davrida mavjud boʻlgan.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. I том. Москва, 1981, 482-6

¹ Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундальмалар. Т.: Фан. 1968. 69 -6

Haqiqatan ham, «undalmalar badiiy asarlarda qo‘llanilishi jihatidan teng emas. Masalan, shaxslarga qaratilgan undalmalar prozaik asarlarda, jonli va jonsiz predmetlarga qaratilgan undalmalar esa poetik asarlarda ko‘p uchraydi».¹

Buning asosi shundaki, she‘riyatda ruh hukmron bo‘ladi.

Xullas, birinchidan, undalma grammatik - sintaktik kategoriya -uning gapdagi o‘rni, grammatik xususiyatlari grammatikada o‘rganiladi. Murojaat tushunchasi ijtimoiy - mantiqiy kategoriya bo‘lib, uning mundarijasi qachon, qay vaziyatda, kimga va nima munosabat bilan, qanday tarzda murojaat qilinishi kabi masalalar, bir so‘z bilan, ijtimoiy - mantiqiy mazmun va funksiyasi sotsial lingvistika deb ataluvchi tashqi lingvistikada o‘rganiladi.

SHu o‘rinda sotsial lingvistika vazifasini aytib o‘tish o‘rinlidir.

F.de Sossyurning tilshunoslik tarixida tutgan o‘rni haqida to‘xtalib, S.Usmonov shunday yozadi: «Uning lingvistik ta’limoti tubandagi muhim prinsiplarni o‘z ichiga oladi:

1. Til ko‘p tomonlamadir. Uning bu xususiyati shulardan ko‘rinadi:

a) funksional jihatdan til aloka vositasidir. Demak, u ijtimoiy xodisa:

b) ichki qurilishiga ko‘ra, til xabarni shartli belgilar yig‘indisi (kod) ga aylantiruvchi va o‘sha belgilardan holi qiluvchi ma’lum miqdordagi ishora (znak)lar sistemasidir...

2. F. de Sossyur tashqi va ichki lingvistikani qarama - qarshi qo‘ydi. Uningcha, tashqi lingvistika tilning xalq tarixi, madaniyati bilan, siyosiy qarashi va adabiyoti bilan, geografik joylashishi bilan bog‘lab tekshirishi lozim.

Ichki lingvistika tilning qurilishi, strukturasini o‘rganadi...

Tilshunoslikda sotsiologizm tilni ijtimoiy hodisa deb hisoblashga asoslangan ta’limotdir.¹

¹ Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалмалар. Т.: Фан. 1968. 69-6

¹ Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент., 1972, 91- 90-6

Ikkinchidan, undalma qanday soʻzlardan ifodalanishi (ot, otlashgan olmosh...) grammatikaning oʻrganish predmeti. Murojaat oʻsha soʻzlardagi davr va muhit taʼsirini ham aks ettiradi. Masalan, birgina ulugʻlash mazmunini ifodalash uchun janob, taqdir, afandim, mirzo soʻzlari qoʻllaniladi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida soʻzlovchi shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy oʻrniga mos holda janob, taqdir soʻzlarini murojaat shakli sifatida qoʻllash mavjud. Bu soʻzlardan janob davlat va hukumat boshliqlariga murojaatda qoʻllanishi barqaror holga kelib qatʼiylashgan, taqdir soʻzi esa koʻproq diniy ilmlilik darajasida yuqori turuvchilarga nisbatan qoʻllanishi rasmiylashgan. Mirzo va afandim soʻzlari, hozirgi norma boʻyicha, isteʼmoldan chiqqan;

Uchinchidan, undalma vazifasida kelgan soʻzlarning nominativ, stilistik xususiyatlari lingvistikada oʻrganiladi, sotsial lingvistika bu soʻzlarni ijtimoiy - tarixiy, semantik - funksional kontekstda tahlil etadi.

SHuningdek, sotsial lingvistikada:

a) nom va nom egasi oʻrtasidagi aloqadorlik;

b) xalq tomonidan asos solingan nomlar, anʼanaviy nomlar, nomlarning ijtimoiy plandagi maʼnosi (leksik maʼnosi emas) kabi masalalar ham koʻriladi.

SHunday qilib, ichki lingvistika «tilning qurilishi, strukturasini», til mexanizmini oʻrgansa, tilning ijtimoiyot bilan bogʻliq jihatlari tashqi lingvistika predmetidir. Ichki lingvistikada murojaatning maxsus - xoslangan shakli - masalan, undalma obʼekt boʻlsa, tashqi-sotsial lingvistika murojaat qamrovini kengaytiradi: u boshqa yana qator murojaat imkoniyatlarini ham obʼekt qilib oladi.

Undalmalarning qoʻllanishida koʻpincha quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1) istak, hohish bildirish asosiy maqsad boʻlgani uchun, shu xil mazmunni ifodalagan birliklar koʻpincha oldin, undalmalar keyin keladi: *Hoji ham oʻzini toʻxtatolmay Kumushning yoshini artib, boshini siladi: - Xudo shifo bersin, bolam!* (A.Qodiriy) *Bebaho borliqni asrang, odamlar!* (N.Narzullaev);

2) undalma vazifasida Olloh so‘zi va uning sinonimlari ko‘proq ishlatiladi: *YOlvoraman, Ollohim, Insonni xor etma, CHiroqqa zor etma*. (N.Narzullaev) *YO rabbim! Ularga o‘zing to‘zim ber...* (S.Ahmad);

3) –kur (–gur) affiksini olgan ijobiy istak birliklari substantivlanib, ma’lum shaxs nomi o‘rnida undama vazifasida keladi. *Tur, baraka topgur, paxtasi yig‘ilib qoadi*. (O‘.Hoshimov) *Ha, umringdan baraka topgur–a, tursang–ku bo‘lardi–ya!* (O‘.Hoshimov) *Baraka topgurlar, termasalarining ham, daada yuringlar* (T.Malik)

4) ijobiy istak birliklarining o‘zi undalma bo‘lib keladi. *Voy, onaginang aylangur, bo‘yginangga qoqindiq bo‘ay, – deb SHarofatbibi uzoq vaqt bag‘ridan Komilani qo‘ymadi*. (Oybek)

5) ijobiy istak birliklari tarkibidagi undalmalar yoyiq (birikmali) holda ham kelishi mumkin: — *Uyingga bug‘doy to‘lgur, yo acha de, yo xizmat qilaylik, dedim*. (T.Malik) *Opasi aylansin, tezroq borib kel!* (So‘zlashuvdan)

Misollardan ko‘rinadiki, yoyiq undalmalar o‘zbek tilida barqaror shaklga kelib¹, o‘z semantikasiga ko‘ra sifat turkumiga yaqinlashgan² –gur affiksli otlashgan sifatdosh shaklida ifodalanadi.

–gur (–kur) shaklli sifatdoshlar asosan olqish va qarg‘ish iboralarida qo‘llanadi. Bunday iboralar nutqiy etiketlar sifatida faol qo‘llangani bois, ularning mazmunidan ijobiy istak bilan birga sub’ektiv ijobiy munosabat ham seziladi.

Odatda, ijobiy istak birliklari birgina qurilma shaklida kelmay, birdan ortiq birliklardan tashkil topgani tufayli bu xil birliklar qo‘shma gap yoki uyushiq bo‘lakli gap tarzida shakllanadi. SHu xilda tuzilgan qurilmalar ko‘pincha bog‘lovchilarsiz qo‘llanadi: *Omin, baxtli–saodatli bo‘l, uvali–juvali bo‘l, tup qo‘yib, palak yozgin*. (So‘zlashuvdan) *Eganing oldingda bo‘lsin, emaganing ortingda bo‘lsin*. (So‘zlashuvdan) Ba‘zan ijobiy istak birliklari murakkab qo‘shma gap shaklida tuzilishi mumkin: *Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliklaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin*. (A.Qodiriy)

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 2–қисм. –Т.: Фан, 1976. 262–б.

² Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. 126–б.

XULOSA

O‘zbek tilidagi duolar, olqishlar, xalq maqollari, iboralarda ijobiy istak mazmuni ham ifodalanadi. Ayniqsa, bu xususiyat duoar, olqishlar hamda muomalada qo‘llanuvchi nutqiy etiketlar mazmuniga xosdir. Bu esa bunday til birliklarini “Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar” nomi ostida o‘rganishga imkon beradi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar xilma–xil semantik guruhlariga bo‘linadi: yurtning tinch, farovon bo‘lishi, ahillik–totuvlik, sog‘–salomatlik, uzoq umr ko‘rish, farzand ko‘rish, baxtli hayot kechirish, omadli, rizq–ro‘zli bo‘lish, oq yo‘l tilash, serfarzand–serdavlat bo‘ltsh, kuch–quvvat, baxtli hayot kechirish, qo‘sha–qarish kabi istaklarni ifodalovchi birliklar.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning leksik xususiyatlari juda rang–barang bo‘lib, bu xildagi qurilmalar tarkibida so‘z ma’nolarining ko‘chishi va kengayishi hodisasi juda keng ko‘lamda uchraydi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarni qo‘llashda ba’zan jinslarga nisbatan farqli qurilmalarni uchratish bilan birga yoshga nisbatan ham farqli

ishlatish holatlari uchraydi. SHuningdek, ijobiy istak birliklari butun bir frazemani tashkil qilishi yoki frazemalar tarkibida ishtirok etishi mumkin.

Morfologik xususiyatiga ko'ra bunday birliklar quyidagi xususiyatlarga ega: a) ijobiy istak birliklari tarkibidagi fe'llar, asosan, buyruq maylining II va III shaxs shakllarida keladi; b) ijobiy istak birliklari tarkibida –kur (-gur) qo'shimchasini olgan fe'llar faol ishlatiladi; v) bunday qurilmalarda qo'shma fe'lning ot +fe'l tipida tuzilgan turi keng qo'llanadi; g) ijobiy istak birliklari tarkibida juft so'zlarning baxt-saodat, mehr-shafqat kabi sinonimlardan tuzilgan turi juda faol ishlatiladi; ijobiy istak birliklarida sifat hamda sifatdoshli qurilmaning otlashishi juda ko'p uchraydigan hodisadir.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning ko'p qismi his-hayajon bilan aytiladi va undov gap shaklida keladi. Bunday undov gaplarning ma'lum qismini so'z-gap tarzida shakllangan rasm-rusm mazmunini ifodalovchi undov gaplar tashkil qiladi. Bu xildagi gaplar salomlashish, taskin berish, ma'qullash, rag'batlantirish, minnatdorchilik bildirish, xayrlashish kabi turli mazmunni ifodalaydi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarda gapning bosh bo'laklarining qo'llanishida o'ziga xos tomonlar mavjud. Bular quyidagilarda ko'rinadi: a) ijobiy istak birliklarida ega, adabiy tildagidek, turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi; b) bu xil birliklar tarkibida Olloh, xudo so'zlari ko'pincha ega vazifasida qo'llanadi; v) ayrim vaqtda o'zi so'zi qaratqich kelishigi shaklidagi Olloh, xudo so'zlari bilan birga (xudoning o'zi shaklida) ega vazifasida keladi; g) ba'zan esa qaratqich kelishigidagi Olloh, xudo so'zlari tushirilib, o'zi so'zi (qaratqichsiz) ega vazifasini bajaradi; d) agar Olloh, xudo so'zlari qaratqich kelishigi affiksisiz qo'llansa, xudo so'zi undalma, o'zining so'zi ega vazifasini bajaradi. Egaga mos holda kesim tarkibidagi tuslovchilar ham o'zgaradi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar tarkibidagi keismlarning ko'p qismini ot + fe'l tipida tuzilgan tarkibli ot kesimlar tashkil qiladi. Bu xil tarkibli ot kesimlarda bog'lama vazifasida bo'lmoq fe'li faol ishlatiladi.

Bu xil qurilmalar tarkibida undalmalarning qo‘llanishida ham ma’lum o‘ziga xos tomonlar bor: a) ijobiy istak ko‘pincha Olloh, xudoga qaratilgani uchun ham shu so‘zlar undalma vazifasida keladi; b) ijobiy istak bildirilgan shaxs nomlari undalma bo‘lib keladi; v) –kur (-gur) affiksi ishtirokidagi ijobiy istak birliklari undalma bo‘la oladi; g) I shaxs buyruq-istak maylidagi fe‘llar undalma vazifasini bajaradi; d) ba’zan ayrim shevalarda III shaxs birlikdagi egalik affiksini olgan qarindoshlik ifodalovchi ayrim so‘zlar undalmalar tarkibida kelib, I shaxs kishilik olmoshi (men so‘zi)ning o‘rnida qo‘llanadi. Bu so‘zlar undalma tarkibida nisbiy “ega” vazifasida nisbiy fe‘l “kesimlar” bilan birga kela oladi: Onasi aylansin, baxtli bo‘lgin, qo‘sha qarigin. Bunday qurilmalar tarkibidagi fe‘l kesim ba’zan tushib qolishi ham mumkin.

Tuzilish xususiyatiga ko‘ra ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning o‘ziga xos tomonlari mavjud. Ular so‘z birikmasidan, bir gapdan tuzilganidek, bir necha gaplarning birikuvidan ham tuzilishi mumkin. CHunki ko‘pincha bir emas, bir nechta ijobiy istak qator keladi. SHuning natijasida murakkab qo‘shma gap shaklidagi qurilmalar ham ishlatiladi. Bir necha ijobiy istak birliklaridan tuzilgan gaplarning qismlari ko‘pincha teng huquqli bo‘lib, ular orasida tenglanish munosabati mavjud bo‘ladi. SHunisi xarakterliki, bu xildagi qismlari tenglanish asosida tuzilgan qo‘shma gaplar tarkibidagi biriktiruvchi grammatik vositalar – teng bog‘lovchi va yuklamalar ko‘p vaqt ishlatilmay, bunday qurilmalar yordamchilarsiz birikkan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari: ma'naviy qadriyatlar va milliy mulkni anglashning tiklanishi. – T.: O'zbekiston, 1999.
2. Abdurahmonov G', SHukurov SH. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1973.
3. Berezin F.M., Golovin B.N. Общее языкознание. – M.: Prosveshchenie, 1979.
4. Baskakov N.A. va boshvalar. Umumiy tilshunoslik. G., 1979.
5. Bazarova M. Ijobiy istak birliklari tarkibida juft so'zlarning qo'llanishiga doir // Til va adabiyot ta'limi. – 2006. 1-son. – B.42-45.
6. Salimov R. o'zbek tilida takroriy nomlanish masalasi. O'zbek tili va adabiyoti. 1989. 4-son, 26-bet.
7. Baskakov N. A. Va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. T. 1979.
8. G'ulomov A.G', Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: Fan, 1987.

9. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992.
10. Iskandarova SH. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fanlari nomzodi diss...avtoref. – Samarqand, 1993.
11. Xusainova Z. To'y marosimi nomlari. Filol. Fanlari nomzodi diss. ... avtoref. – T., 1984
12. Xaitova F. Nikoh to'yi qo'shiqlarining lisoniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. – T., 1984.
13. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek so'zlashuv nutqi. 2 qism. – Samarqand, 2006.
14. Rahimov U. Tagma'no va presuppozitsiya// O'zbek tili va adabiyoti. – 2005. 5-son. – B.29-33
15. O'zbek tili gramatikasi. 1-qism. – T.: Fan, 1980
16. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek so'zlashuv nutqi. 2 qism. –Samarqand, 2006.
17. Ne'matov H. Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., 1995.
18. Usmonov S. O'zbek tilida undov gaplar. – T.: Fan, 1957
19. Qambarov G'. Baho lisoniy va mantiqiy kategoriya sifatida. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Andijon, 1995.
20. Qo'chqorov N.N. O'zbek xalq olqishlarining janr xususiyatlari: Fil.fan.nom.diss.avtor. –Samarqand. 1994
21. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T., O'qituvchi, 1990.
22. Qo'ng'urov R. Sub'ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. Toshkent, 1980.

